

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

# VATANPARVAR

KOREYA  
HARBIY  
DELEGATSIYASI  
YURTIMIZGA  
TASHRIF  
BUYURDI

●Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ●2023-yil 15-sentabr, №37 (3047)



**BIZ**  
HAQIMIZDA

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

@vatanparvar-bt@umail.uz  
t.me/mv\_vatanparvar\_uz  
t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi  
instagram.com/mudofaavazirligi  
youtube.com/c/uzarmiya



3

JANGOVAR  
TAYYORGARLIK  
OBYEKTI  
FOYDALANISHGA  
TOPSHIRILDI



4

BAHS VA  
MUHOKAMALAR  
DAVOM ETADI



QAROG'IMDASAN,  
**VATAN!**

*Eshit endi Vatan o'g'li, mendin nasihat,  
Qabul qilsang kelur bosningga davlat...  
Vatan asli seningdur O'zbekiston,  
O'g'uzdin qolmish erdi bu guliston.*

Alixonto'ra SOG'UNIY

18

# XALQ VA ARMIYA – BIR TAN-U BIR JON!



M a'lumki, har oyning uchinchi chorshanbasida mudofaa vaziri o'rribosari general-mayor Hamdam Qarshiyev vazirlik markaziy apparati ishchi guruhi bilan birgalikda fuqarolar, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini qabul qiladi va kelib tushgan murojaatlar bo'yicha mavjud muammolarni o'rGANADI. O'tgan davr mobaynida yuzlab ana shunday murojaatlarga yechim topildi. Bu esa armiya va xalq – bir tan-u bir jon iborasi amalda o'z isbotini topayotganidan darak beradi.



Vazir o'rribosarining bu safargi qabulida elliukka yaqin murojaatlar tinglanib, ularning deyarli barchasi bo'yicha fuqarolarga ijobjiy javob berildi. Murojaatlar asosan uy-joy, ish o'rni va o'qishni ko'chirish, unvon olish, kontrakt muddatini uzaytirish, harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish, nafaqa tayinlash, oilaviy muammolarni bartaraf etish masalalari bo'yicha bo'ldi. Ayrim ota-onalar farzandlarining xizmat joyini o'z viloyatiga ko'chirish masalasida rad javobini olgan bo'lishiga qaramay, qabulni ko'ngli to'lgan holda tark etishdi. Chunki general-mayor Hamdam Qarshiyev qilingan murojaatning yuridik, qonuniy

yechimini fuqarolarga yotig'i bilan tushuntirdi.

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugda xizmat burchini o'tayotgan uch nafar farzandning onasi (*katta farzandi nogiron*) kichik serjant Mohidilxon Rajabovaning kontrakt muddatini uzaytirish murojaati mudofaa vaziriga taqdim etiladigan bo'ldi. Navoiylik yolg'iz ona Sadoqat Yo'idosheva Surxondaryoda xizmat qilayotgan yolg'iz farzandining xizmatini Buxoroga ko'chirishni so'rab qilgan murojaati ham yaqin kunlar ichida ijobjiy yechim topishi bo'yicha mas'ul ofitserlarga tegishli topshiriqlar berildi. Kichik serjant Tojimuhammad Mirzaqulovning

turmush o'rtog'i, 2-guruh nogironi Gulnoza Mirzaqulovaga esa uy-joy va sog'lig'i bo'yicha amaliy yordam ko'satiladigan bo'ldi.

Mudofaa vaziri o'rribosari fuqarolar, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari, yoshlar hamda faxriylarning har bir murojaati qonun

doirasida hal etilishiga ishonch bildirdi. Qabul davomida qirqdan ortiq yordamga muhtoj har bir oila vakilining muammolarni yaqin kunlar ichida bartaraf etilishi ta'kidlandi. Bu borada Mudofaa vazirligining tegishli boshqarma boshliqlari va mas'ul ofitserlariga topshiriqlar yuklatildi.

Asror RO'ZIBOYEV,  
«Vatanparvar»



# KOREYA HARBIY DELEGATSIYASI TASHRIFI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLI KUCHLARI  
AKADEMIYASIGA KOREYA RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI  
HARBIY DELEGATSIYASI TASHRIF BUYURDI.



Koreya Respublikasi Milliy mudofaa universiteti boshlig'i general Kim Hongseog boshchiligidagi delegatsiya a'zolarini akademiya boshlig'i polkovnik Bobur Shayakubov kutib oldi.

Tashrif buyurganlarga akademianing tarixi, hududi va o'quv jarayonlari haqida ma'lumot berildi. Ikki davlat oliy harbiy ta'lim muassasalari rahbarlari o'tasida ikki tomonlama muzokara tashkil etildi.

Shundan so'ng akademiya muzeyi, o'quv xonalari, axborot resurs markazi, mashg'ulot jarayonlari, yotoqxona hamda harbiy o'quv texnikalarining



imkoniyatlari bilan tanishirildi. Shu kuni ular akademianing o'quv jarayonini ta'minlash bazasini ham ko'zdan kechirishdi.

Kunning ikkinchi yarmida delegatsiya a'zolari Chirchiq oliv tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida ham bo'lishdi. U yerda mehmonlar ta'lim jarayoni, kursantlarga yaratilgan sharoitlar, shuningdek ofitserlar tayyorlash bosqichlari haqida ma'lumotga ega bo'ldi.

**Ro'ziqul OCHILOV,**  
«Vatanparvar»

## ✓ JARAYON

# ENDI ID-KARTA

So'nggi yillarda mamlakatimizda yo'lovchilar va transport vositalarining Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlaridan harakatlanishini optimallashtirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.



Xususan, O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Qirg'iziston Respublikasi Hukumati o'tasida 2006-yil 3-oktabrdan imzolangan fuqarolarning o'zaro

## BILAN O'TISH MUMKIN

kelib-ketishlari to'g'risidagi bitimga o'zgartirishlar kiritish haqidagi bayonnomma 2023-yil 27-yanvarda Bishkek shahrida imzolandi va 2023-yilning 25-avgust kunidan kuchga kirdi.

Ushbu hujjatda belgilangan tartiblardan birining qulayligi shundan iboratki, joriy yilning 1-sentabr kunidan boshlab, O'zbekiston fuqarolari Qirg'izistonga, xuddi shunday Qirg'iziston fuqarolari O'zbekistonga ID-karta orqali kirishi mumkin (*ilgari faqat xorijga chiqish pasporti bilan mumkin edi*).

Fuqarolarning chegaradan kirish-chiqishi haqidagi ma'lumotlar elektron tarzda qayd etiladi, pasportga shtamp bosishga hojat qolmaydi. Ushbu yengillik istalgan transport orqali (*samolyot, poyezd, avtomobil, avtobus va hokazo*) chegarani kesib o'tishda amal qiladi.

Mazkur bayonnomaga ko'ra, ID-kartasidan faqat tomonlar davlati

hududiga bevosita kirib-chiqish uchun foydalilanadi. Ya'ni O'zbekiston fuqarosi ushu ID-karta bilan faqat O'zbekiston Respublikasidan chiqib, Qirg'iziston Respublikasiga kirish hamda Qirg'iziston Respublikasidan chiqib, O'zbekiston

Respublikasiga kirish huquqiga ega. Bunda mazkur ID-karta bilan boshqa uchinchi davlatga borishga ruxsat etilmaydi.

Xalqaro aeroportlarda esa O'zbekiston Respublikasidan Qirg'izistonga yoki aksincha Qirg'izistondan O'zbekistonga to'g'ridan to'g'ri amalga oshirilayotgan qatnovlarda borayotgan O'zbekiston yoki Qirg'iziston fuqarolari ushu ID-kartalardan foydalanib, davlat chegarasidan o'tish huquqiga ega. Bunda uchinchi davlatdan kelayotgan yoki uchinchi davlatga ketayotgan aviaqatnovlarda harakatlanishda ID-kartadan foydalanish mumkin emas. Ushbu tartib, ayniqsa O'zbekistonning eksklav hududlari bo'lgan So'x, Shohimardon, Cho'ng'ara kabi hududlaridagi o'zbekistonliklar uchun katta yengillik bo'ldi.

**DXX Chegara qo'shinlari**

# JANGOVAR TAYYORGARLIK OBYEKTI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

NUKUS GARNIZONIDAGI HARBIY QISMLARNING BIRIDA JANGOVAR TAYYORGARLIK OBYEKTI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI.



So'nggi yillarda Qurolli Kuchlar tizimida olib borilgan islohotlar ko'p yillardan beri og'riqli bo'lib kelgan muammolarni hal etishga, harbiy xizmatchilar uchun xavfsiz xizmat sharoitlarini yaratishga, armiyaning jangovar qudrati va salohiyatini yuksaltirishga qaratilgani bilan ahamiyatlari bo'lmoxda. Shunday o'zgarishlar sabab bugun Mudofaa vazirligi qo'shinlarida mavjud bo'lgan harbiy obyektlar infratuzilmasi takomillashtirilib, zamon talabiga mos bo'lgan yangi ijtimoiy va jangovar tayyorgarlik obyektlari bунyod etilmoqda. Buning natijasida so'nggi bir necha yilda armiyaning qudrati ortib, jangovar tayyorgarligi sezilarli darajada yuksaldi.

Harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligini yuksaltirish, jang olib borishning yangicha usul va uslublarini tadqiq etish, turli hududlarda qorol va harbiy texnikalardan oqilona foydalanishni o'rnatish maqsadida Mudofaa vazirligi qo'shinlarida jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari yildan yilga takomillashtirilib, zamon bilan hamnafas olib borilmoqda. Harbiy xizmatchilarning individual tayyorgarligini oshirish va bo'linma tarkibida jipslikni ta'minlash maqsadida yangicha murakkab mashqlardan iborat me'yorlar samarali joriy etilib, amaliy ko'nikmalarining mustahkamlanishiga erishilmoxda. Bunga mavjud zamonaviy umumqo'shin poligonlari, harbiy qismlar hududidagi kichik dala-o'quv maydonlari va jangovar tayyorgarlik shaharchalari katta hissa qoshmoqda.



Nukus garnizonida joylashgan harbiy qismlarning birida ilgari tashlandiq bo'lib turgan qariyb 1,5 gektardan ortiq hududda kichik dala-o'quv maydoni barpo etilib, unda 10 ta shaharchadan iborat 50 ga yaqin o'quv joyi yaratildi. Obiektni foydalanishga topshirish marosimida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-mayor Farhodjon Shermatov, Nukus harbiy prokurori adliya polkovnigi Ulug'bek Abduraximov, Qurolli Kuchlar faxriylari hamda harbiy xizmatchilar ishtirok etdi. Ta'kidlanganidek, ushbu kichik dala-o'quv maydonida bir vaqtning o'zida 600 nafar harbiy xizmatchining kunduzi va tunda jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari bilan shug'ullanishi uchun imkoniyat yaratilgani, endilikda o'nlab kilometr olisdagi "Nukus" umumqo'shin poligoniga borish uchun sarflanadigan vaqtidan unumli

foydanib, mashg'ulotlarni harbiy qism hududining o'zida tashkil etish mumkinligi katta ahamiyatga ega.

Artilleriya jangovar ish shaharchasi, havo hujumidan mudofaa, muhandislik, aloqa, texnik, otish va tog' tayyorgarliklari, radiatsion, kimyoziy, biologik muhofaza, harbiy topografiya shaharchalari hamda jamoaviy ruhiy barqarorlikni shakllantirish yo'lagidan iborat kichik dala-o'quv maydoni hudud xususiyatlariiga mos ravishda yaratildi. Har bir shaharcha 4-5 tadan o'quv joylari va nuqtalaridan iborat bo'lib, ularda yakka va guruh tarkibida jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari bilan ham kunduzi, ham tungi sharoitda shug'ullanish mumkin. O'quv joylarida nishon masetlari, turli to'siqlar, xandaq va transheyalar, yerto'lalar hamda boshqa obyektlar nizom tabalablariga muvofiq yaratilgan.

Jangovar tayyorgarlik shaharchalarida amaliy mashg'ulotlarni

o'tkazishdan oldin nazariy bilimlarni boyitish, texnika xavfsizligi talablari bilan tanishish uchun ochiq turdag'i sinfxonalar mavjud. Mashg'ulotlarni o'qotar qurollar hamda jangovar va harbiy texnikalar yordamida o'tkazish, jangovar bo'linma tarkibida jang olib borish sirlarini mukammal o'zlashtirish uchun bунyod etilgan ushbu obyekt endilikda harbiy xizmatchilarning professional tayyorgarligini yanada yuksalishiga hamda amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashiga xizmat qiladi.

Tantanali tadbir davomida ushbu dala-o'quv maydonining barpo etilishida jonbozlik ko'rsatgan bir guruh harbiy xizmatchilarga minnatdorlik bildirildi.

**Podpolkovnik Timur NARZIYEV,  
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug  
matbuot xizmati boshlig'i**



# VATANPARVARLIKKA UNDOVCHI

# MEZON



Garchi psixologiya fan sifatida XIX asrning oxirlarida yuzaga kelgan bo'lsa-da, uning asosiy negizi insoniyat paydo bo'lishi bilan bog'liq, desak, adashmaymiz. Chunki inson ongiga chetdan ta'sir ko'rsatuvchi har qanday tashqi kuch uning psixologik (ruhiy) o'zgarishlariga sabab bo'luvchi omil hisoblanib, Yer yuziga ilk qadam qo'ygan odamlarning ko'rish, eshitish, his qilish, hid bilish kabi xususiyatlari orqali psixologik o'zgarishlarning dastlabki ko'rinishlari kuzatilgan. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, insonning psixologik o'zgarishlari, ya'ni qanday kayfiyatda bo'lishi ta'sir ko'rsatuvchi kuchlar va sabablarsiz amalga oshmasligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Bugungi kunda psixologiya bilan bog'liq bo'lmagan biror bir sohani topish qiyin. Negaki ish unumi va sifati bevosita inson kayfiyati bilan bog'liq. Shuning uchun biringchi tibbiy yordam ko'rsatish, favqulodda vaziyatlar, kuch tuzilmalari kabi sohalarni psixologlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. **Xullas, tabiiy texnogen vaziyatlar, terroristik tajovuzlar, ommaviy epidemik holatlarda psixolog xizmatidan foydalanish hayotiy tajribalar asosida isbotlangan.**

Ko'pgina davlatlar harbiy bo'linmalari, kuch tuzilmalari va huquq-tartibot organlarida jangovar topshiriqning talafotlarsiz bajarilishini ta'minlash uchun harbiy xizmatchiga yoki xodimga o'sha muhitda kerakli sharoitlar yaratiladi. Bundan tashqari, jangovar topshiriqdan oldin va uni bajarib qaytgan har bir harbiy xizmatchi va politsiya xodimi, ekstremal vaziyatda xizmat burchini o'tashga majbur bo'lgan boshqa soha vakillari biringchi navbatda psixolog ko'rigidan o'tkaziladi. Bunday holatlarni xorij filmlarida xohlagancha kuzatish mumkin.

**Psixolog mutaxassisligini** mamlakatimizga, kundalik hayotimizga keyingi o'n yilliklar ichida jadal kirib kelgan soha deb baholash mumkin. Qurolli Kuchlari tizimiga esa bu soha kirib kelganiga hali ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Aniqroq qilib aystsak, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagisi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy savyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi qarori bilan hayotga tafbiq etildi. Yuqori professional, harbiy va vatanparvarlik burchiga sadoqatli, fidoyi va mard harbiy xizmatchilarni tarbiyalash O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi va hududi yaxlitligini himoya qilish mazkur qarorning eng asosiy tezisi hisoblanadi.

Shuningdek, qarorda milliy armiyamiz safida xizmat burchini o'tayotgan harbiy

xizmatchilarning hayotiy va professional ko'nikmalarini ilm-ma'rifat asosida qalbiga, ongiga singdirish, **mamlakatimiz hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda bilimlarini oshirib borish, yon-atrofimizda, jahonda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish**, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalalarida to'sqinlik qilayotgan tizimli muammolarini bartaraf etish;

oliy harbiy ta'lif muassasalarida

ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda dunyoqarashi

va fikrlash doirasi keng bo'lgan

ofitserlarni tayyorlash hamda O'zbekiston

Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimidagi

ma'naviy-ma'rifiy va madaniy soha uchun

zarur infratzilmalarni yo'nga qo'yish;

O'zbekiston Respublikasi Qurolli

Kuchlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil

etishda davlat va jamoat tashkilotlari bilan

samarali hamkorlik tizimini yaratish, harbiy

xizmatchilarning oilalari bilan ishslash,

ularning muammolarini o'rganish, hal etish

ishlarni yanada takomillashtirish kabi qator

istiqbolli mexanizmlarga e'tibor qaratilgan.

Mudofaa vazirligi qo'shinlarida harbiy-

vatanparvarlik, ma'naviy-axloqiy tarbiya

va yoshlardan ishslash organlari negizida

tarbiyaviy va mafkuraviy ishlardan organlari,

brigadalarda (*ularga tenglashtirilgan harbiy qismlarda*) va alohida batalyonlarda

"harbiy psixolog" (ofitser) lavozimi,

harbiy okruglar boshqaruv apparatlarida

"psixolog", "yetakchi sotsiolog",

brigadalarda (*ularga tenglashtirilgan harbiy qismlarda*) va alohida batalyonlarda

"harbiy qism komandirining ma'naviyat

va ma'rifat ishlari bo'yicha maslahatchisi

- madaniyat markazi boshlig'i" (Qurolli

Kuchlari xizmatchisi) lavozimlari joriy etilib,

ko'zdautilgan asosiy maqsad mazkur

mechanizmi harakatga keltiruvchi omil

ekanligini ta'kidlash o'rini.

Qisqa qilib aytganda, Mudofaa vazirligi tizimida besh yildan buyon harbiy psixologlar faoliyat ko'rsatmoqda. Podpolkovnik Doniyor Xoldorov, mayorlar Ulug'bek Mo'minov, Oxun To'raqulov, kapitanlar Bekzod Choriyev, O'ktam Ochilov, katta leytenantlar Akmal Abdurahmonov, Nurbek Do'stmurodov, Jahongir Musayev, Anvarjon Qulsoato, Jamshid Habibov, leytenant Abbosbek Bahriiddinov kabi ofitserlar bu borada o'zlariga kerakli xizmat va hayotiy tajribalarga ega bo'lib ham ulgurishdi. Ularning jangovar o'quv-mashg'ulotlardagi ish uslubini kuzatish jarayonida turlicha o'ziga xos uslublardan foydalanishiga guvoh bo'ldik. **Ma'lumki, psixolog mutaxassislar tug'ma qobiliyat, amaliy bilim, tajriba asosida o'zlashtirilgan uslublari asosida faoliyat olib boradi.** Harbiy psixologiyada ularning barchasi har qanday jangovar mashg'ulot yoki real vaziyatlarda harbiy xizmatchi uchun jangovar ruhni ko'taruvchi, jasoratga, burchga sadoqat, vatanparvarlikka undovchi mezon sifatida ta'sir ko'rsata olishi lozim.

Shu o'rinda, "Bu komandirlar zimmasidagi vazifa emasmi?" degan haqli savol tug'iladi. Albatta, har bir komandir, u guruh yoki vzvod bo'ladimi, batalyon yoki brigada bo'ladimi, shaxsiy tarkibni o'z ortidan ergashtira olishi lozim. Bunday komandirlar o'ziga yarasha yuqorida sanab o'tilganidek, tug'ma qobiliyat, amaliy bilim, tajriba asosida o'zlashtirilgan ko'nikmalarga ega bo'ldi. **President qarorida ham aynan butun shaxsiy tarkibning hamisha jangovar ruhi baland bo'lishi, jasorat, burchga sadoqat, vatanparvarlik hissini bir lahma bo'lsa ham unutmasligini ta'minlash harbiy psixologlar zimmasidagi mas'uliyatlari ekanligi ta'kidlab o'tilgan.** Shu o'rinda oddiy bir misol. Aytaylik, qaysidir bir harbiy xizmatchi xizmat burchini bajarish chog'ida ruhni zo'riqish holatiga

tushib qoldi. Uni komandiri ham, harbiy psixolog ham bu holatdan chiqara oladi. Shu vaziyatda nizom bo'yicha bu ishni mutaxassis sifatida ilmiy asoslarga tayangan holda harbiy psixolog amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir.

Demak, harbiy psixologning vazifasi harbiy xizmatchilarning to'satdan, atayin, rejalashtirilgan vaziyatlardagi ruhiy holatining barqarorligini ta'minlashdan iboratdir. **Presidentimiz tomonidan qabul qilingan qarorda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarini tomonidan yoshlarni yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan tadbirlarni muntazam tashkillashtirish, harbiy xizmatchilar va ular oila a'zolarining ma'naviy-ma'rifiy bilimlarini mustahkamlash, ularda vatanparvarlik, Vatanga muhabbat, milliy istiqlol g'oyalari sodiqlik, Qurolli Kuchlarga hurmat tuyg'usini shakllantirish g'oyalari ilgari surilgan.** Bu g'oyalalar milliy merosimizning tarixiy ildizlarini o'rganish hamda tahlil etish, Vatan ozodligi yo'lida qahramonlik ko'rsatgan buyuk ajoddolarimiz va jasur zamondoshlarimizning ibratli hayotini keng targ'ib etish prinsiplariga asoslanganligi oldinga qo'yilgan maqsad sari tashlangan muhim qadamadir.

Xulosa qilib aytganda, harbiy psixologiya milliy armiyamiz salohiyatini oshirishda, mamlakatimiz mudofaa qudratini mustahkamlashda, yurtimizning har bir fuqarosi ongida yot g'oyalarga qarshi immunitet hosil qilishda muhim vositalardan biri bo'lishi ko'zda utiligan. Shu sohada faoliyat olib borayotgan ofitser mutaxassislar esa tez orada o'z ilmiy ishlari bilan sohani yanada rivojlantira oladi deya ishonch bilan ayta olamiz.

**Asror RO'ZIBOYEV,  
«Vatanparvar».  
Kapitan Sherzod NASRIDDINOV,  
psixolog**

## HARBIY QASAMYODGA

# SODIQLIK BURCHI

Umumiy harbiy majburiyat – fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlashni, harbiy xizmatga chaqirish (kirishini), chaqiruv yoki kontrakt bo'yicha harbiy xizmat o'tashni, rezervdagi xizmatni, muqobil xizmatni, harbiy ro'yxatdan o'tish qoidalariga rioya etishni, favqulodda vaziyatlarda yoki O'zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz bo'lgan taqdirda aholini muhofaza etish chora-tadbirlarini qamrab olishi O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonuni bilan mustahkamlab qo'yilgan.



Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga kirayotgan har bir fuqaro davlat timsoli hisoblangan muqaddas bayroqni o'pib, buyuk ajodolarimizning pok ruhlari oldida, Vatan oldidagi burchini halol bajarishga bel bog'lashini, vijdoni, or-nomusi va sha'nini o'rtaqa qo'yib qasamyod qabul qilishini hammamiz yaxshi bilamiz.

Ma'lumki, Mudofaa vazirligi tizimida milliy armiyamiz safini kerakli kadrlar va harbiy xizmatchilar bilan to'ldirish harbiy-kasbiy saralash organi ofitserlarining zimmasidagi mas'uliyatlari vazifa sanaladi. Soha mutaxassislari harbiy okruglar miqyosida muddatli harbiy xizmatni o'tagan va kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga kirish xohishini bildirganlar

orasidan tanlov asosida munosib nomzodlar vazirlikning kadrlar bosh boshqarmasiga tavsiya etadi.

Minglab nomzodlar orasidan eng munosiblarini tanlab olishdek vazifaning mas'uliyatini his qilgan soha ofitserlari har yili O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida kasbiy bilimlarini oshirib borishi yo'lda qo'yilgan. Harbiy-kasbiy saralash organi ofitserlari akademiyada o'quv-uslubiy yig'inlarda qatnashib, bir haftalik o'quv davomida milliy istiqlol g'oyasi, O'zbekiston Respublikasining strategik tamoyillari, dunyodagi harbiy va siyosiy o'zgarishlar kabi mavzularda ma'ruzalarni tinglashadi.

Bu yilgi o'quv-uslubiy yig'inda qatnashayotgan ofitserlar

akademiyadagi darslardan tashqari Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida tashkillashtiriladigan mashg'ulotlarda ham ishtiroy etadi. Milliy universitet professor-o'qituvchilari tomonidan taqdim etiladigan ilmiy ma'ruzalarda sharaflı burchning ijtimoiy hayotimizdagı o'rni, qadr-qimmati, mustaqillikni himoya qilishdagi ahamiyati kabi dolzarb masalalar muhokama etiladi.

O'quv-uslubiy yig'in mavzulari tinglovchilar tomonidan yanada teranroq anglanishi uchun poytaxtimizning tarixiy va madaniy obidalari bo'yicha ekskursiya uyuştirish ko'zda tutilgan.

Kamoliddin ASROR

### ✓ VIKTORINA

# "SIFATLI TA'LIM – BIZNING KUCHIMIZ"



Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurtida kursantlarning dam olish vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida "G'alabaning kaliti – bilimda" va "Sifatli ta'lism – bizning kuchimiz" shiorlari ostida viktorina hamda zakovat intellektual o'yinlari o'tkazib kelinmoqda.

Bu galgi tadbirda kursantlar otish tayyorgarligi bo'yicha o'z bilim va ko'nikmalarini namoyon qilishdi. Qizg'in kechgan viktorinada 2-bosqich kursantlarining "Mohir o'qchilar",

3-bosqich kursantlarining "Tinchlikdagi jangchilar", 4-bosqich kursantlarining "Merganlar" va 5-bosqich kursantlarining "Muhandislar" jamoalari otish tayyorgarligi fanidan 3 ta shart asosida bellashdilar.

Yakuniy natijalarga ko'ra, 2-bosqich kursantlarining "Mohir o'qchilar" jamoasi 1-o'ringa sazovor bo'ldi. "Merganlar" va "Tinchlikdagi jangchilar" jamoalari ikkinchi va uchinchi o'rnlarni qo'liga kiritishdi.

Faxrli o'rinni egallagan jamoalar bilim yurti boshlig'i tomonidan diplom va kitoblar to'plami bilan rag'batlantirildi.

**Polkovnik  
Baxtiyor PARDAEV**

# BERUNIY

## HIKMATLARINING

## YOSHLAR

## TARBIYASIDAGI

## AHAMİYATI



Sharqda ilk Uyg'onish davrining qomusiy olimlaridan biri Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniyning bundan 10 asr avval yozgan "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" kitobida shunday rivoyat berilgan: "Qorong'u kechada shogirdlari bilan yo'iga chiqqan bir olim yo'l ustida tik turgan narsani ko'rib cho'chigan va uning nima ekanligini aniqlashni buyurgan.

Bir shogird: "Nima ekanligini bilolmayman", degan, ikkinchisi: "Uni bilishga qudratim ham yetmaydi", deya to'g'risini aytgan. Uchinchisi esa: "Bilishning foydasi yo'q, chunki tong yorishgach, ma'lum bo'ladi-qo'yadi", degan. Demak, uch shogirdning ma'rifati qisqalik qilgan. Birinchisi – ilmsizligi, ikkinchisi – ojizligi, uchinchisi – ishni keyinga surib, ustozlari oldida ojiz ekanliklarini ko'rsatishgan. Ammo to'rtinchisi aniq javob bermagan va shubhali narsaga yaqin borib, uning o'ralashib ketgan qovoq palagi ekanligini ko'rgan va uni tepib yuborgan. Shunday qilib, shogird o'zining ma'rifatiligi bilan ustozini xursand etgan ekan".

Shunday zukko, farosatlari shogirdlarni yetishtirish bugungi klinikning ham dolzarb masalalaridan biri ekanligi shubhasiz. Mamlakatimizda bo'layotgan yangilanishlar, islohotlarni kuzatar ekanmiz, buyuk allomamizning o'gitlari, hikmatlari bugungi klinik bilishda, handasa va falsafada shu

bir bor his qildik. Ma'lumki, Beruniy umumjahon tabiyi-ilmiy va ijtimoiy fanlar rivojiga katta ta'sir ko'ssatgan buyuk aql-zakovat sohibidir. Fors, arab, suryoniy, yunon, sanskrit, yahudiy tillarini puxta bilgan olim astronomiya, astrologiya, falsafa, matematika, fizika, geodeziya, geologiya, farmakognoziya, mineralogiya, tarix, adabiyotshunoslik, tarjimonlik, lug'atshunoslik kabi sohalarda tadqiqotlar olib borib, badiiy asarlar yaratdi va buyuk samaralarga erishdi.

Beruniy "Qonuni Mas'ud" asarida falakiyat va fizikaga oid qarashlarni, "Joylar chegaralarini aniqlash uchun turarjoylarning masofalarini belgilash" ("Geodeziya") asarida Quyosh va Oyning tutilish sabablarini, joylarning jug'rofik kengliklarini aniqlash yo'llarini tushuntirib bergen. "Javohirlarni bilish va umumiyo kitob" ("Mineralogiya") asarida qimmatbaho tosh va mineralallarni, ularning xossa va xususiyatlarini, solishtirma og'irligi, qattiqlik darajasi, rangi, tiniqligi va boshqa fizik xossalarni bayon qilgan. "Saydana" ("Farmakognoziya") asarida Beruniy qadimgi yunon va o'rta asr Sharqi, Markazi Osiyo, Eron, Hindiston va arab mamlakatlarining madaniyat tarixini tadqiq qilish ishiga ham ulkan hissa qo'shgan.

G'aznaviyilar tarixchisi Abu Fazl Bayhaqiy "Abu Rayhon Beruniy ilm-u odobda, narsalarning mohiyatini bilishda, handasa va falsafada shu

qadar bilimdon ediki, uning zamonida unga tenglashadigan hech kim yo'q edi", deb yozgan edi. Alloma 150 dan ziyod bebafo asar yozib qoldirdi. Afsuski, ulardan 30 dan ortig'igina bizgacha yetib kelgan xolos. Beruniy bitiklari bilan tanishar ekanmiz, allomaning yuksak xulqlisi, oly fazilatlarga boy, bir necha sohalarda qomusiy bilim sohibi ekanligiga amin bo'lamic.

"Ilm dargohiga kirar ekansan, qalbing kishini ozdiruvchi illatlardan, odamni ko'r qilib qo'yadigan holatlardan, chunonchi, qotib qolgan urf-odatlardan, hirsdan, raqobatdan, ochko'zlikning quli bo'lishdan ozod bo'lmos'i darkor", deb yozadi Beruniy. Darhaqiqat, yuksak aqliy darajaga ega har bir ilm egasi nafsdan, haromdan, boylikka ruju qo'yish, baxillik kabi insoniylikka yetib illatlardan xoli bo'lishi lozim. Afsuski, bugun yoshlarmiz o'ttasida turli sabablar bilan yolg'on gapiradigan, bir-birini aldaydiganlar, birovning haqqiga xiyonat qilishdan qo'rqlaydiganlar ham bor. Ular ko'pincha yolg'onning umri qisqa ekanligini, odamlarni aldash yaxshilik keltirmasligini kech anglaydilar. Har bir ishda, u qanday bo'lmasin, oson yo'lni, mehnatsiz, ranjsiz katta natijani orzu qiladilar. Holbuki, ilmdagi muvaffaqiyat tinimsiz izlanish, o'rganish, tajriba, ilmiy kashfiyotlar, ijodkorlik mahsuli hisoblanadi. Sog'lom raqobat, ilmiy munozaralar, taqdimotlar haqiqiy yutuqlarning garovi, halollik, rostgo'ylik, samimiylilik esa insonni ulug'lovchi fazilatlardir. Beruniy ham: "Yolg'onchilikdan chetlanib, rostgo'ylikka yopishgan kishini boshqa odam u yodqa tursin, yolg'onchining o'zi ham sevib maqtaydi", deb yozgan.

"Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida shunday fikr bor. Odamgarchiligi bor, mard kishi o'zidan va o'ziniki ekanligiga hech kim tortishib o'tirmaydigan narsadan boshqasiga egalik qilmaydi". Xo'sh, bu narsa nima? Qurgan uy-joyimi, yig'gan boyligimi yoki yaqinlarimi? Axir ularning o'tkinchi, bugun bizni, ertaga boshqa birovnikni bo'lishi mumkinligini bilamiz. Fikrimizcha, inson faqat o'ziga, o'zining bilimiga egalik qila oladi. Bilimini istaganicha tarqatishi, ko'paytirishi, boshqalarga o'rgatishi mumkin.

Bugungi globallashuv davrida moddiyatni har narsadan ustun qo'yuvchilar orasida Vatanga xizmat qilish tuyg'usidan ko'ra, Vatandan faqat imkoniyat, sharoit, imtiyozlar tama qilish hissi kuchaygandek. Sho'ir aytganidek, "Men Vatanga nima qildim, deyish o'rniqa, Vatan mena nima berdi?" qabilida kun ko'rayotgan yoshlarga bobomiz Beruniyning quyidagi fikrini keltirmoqchimiz: "Asalari ham o'z jinsidan bo'la turib, ishlamay, uyadagi asalni bekorga yeb yotadiganlarni o'ldirib tashlaydi". Insonning qadr-qimmati, hurmati uning yaqinlariga, atrofidagilarga, el-yurtiga tegayotgan foydali amallari bilan belgilanadi. Vatanga muhabbat, sadoqat, unga xizmat qilish shu zaminda ulg'ayayotgan har bir fuqaroning muqaddas maslagi bo'lishi darkor. Aksincha, hasad, baxillik kishini to'g'ri yo'lidan chalg'itib, zulmatga yetaklaydi. Boshqalarning muvaffaqiyatlariga to'siq bo'ladi, ularni harakatdan chalg'itishga intiladi. O'zi esa maqsadsiz, e'tiqodsiz kishilar

domiga tushib qolishi hech gap emas. Beruniy bobomiz aytganidek, "Bilimsiz kishilarning ko'ngli xurofotga moyil bo'ladi".

Bugun ham bilimsizlik tufayli millatimizga yot bo'lgan maslaklarga aldanib qolgan kishilarga Beruniyning quyidagi fikrlari aytilgandek: "Bir kishi, ittifoqo, o'zi tanimagan bir guruh bilan hamroh bo'lib qoldi. Bu kimsalar qaroqchilar bo'lib, bir qishloqni bosib, xarob qilib qaytayotgan edilar. U kishi o'g'rilari bilan birga biroz yo'l bosgach, qasoskorlar yetib kelib, ularni qo'nga oldi. Bu kishi garchi o'g'rilarga sherik bo'lmasa ham, ularga qo'shilgani uchun azobga duchor bo'ldi". Har birimiz yugurik otdek tez o'tayotgan umrimizning har damidan maqsadli va manfaatli foydalishimiz zarur. Davlatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar biz uchun ekanligini unutmaylik.

Beruniy yozganidek: "Din va dunyoda yaxshilik tomon to'g'ri yo'l topish va yomonlikdan uzoq bo'lish uchun ilmdan boshqa chora yo'q. Agar ilmsizlar bir narsaga qo'l ursalar, xato bo'lishi yoki biror narsadan o'zlaricha yomon, deb undan uzoqlashsalar, yaxshilik bo'lib chiqishi tayin". Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qurayotgan yoshlarga jahon andozalariga mos bilim olish uchun, xorijiy tillarni o'rganish, axborot texnologiyalarini o'zlashtirish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Vatanimizdagli barcha ilm dargohlari, xorijning o'nlab nufuzli universitetlari shu maqsadga xizmat qilmoqda. Oliy ta'limga o'qiyotgan qizlar uchun ajratilgan davlat grantlari, shartnomaga to'lovlarining davlatimiz tomonidan to'lab berilishi, magistraturada ta'lim olishning bepulligi shular jumlasidandir.

Zero Vatanni sevish, uning ravnaqini uchun xizmat qilish, har bir chaqirig'iga "Labbay!" deb javob berish har birimiz uchun farz va qarzdir. "Insonning qadr-qimmati o'z vazifasini a'lo darajada bajarishdan iborat, shuning uchun inson o'z xohishiga mehnat tufayli erishadi". Buyuk allomaning bu hikmatlari asrlar osha o'z qimmatini yo'qotmay kelmoqda. Mehnatdan zavqlanish, harakat, izlanish, yaratuvchanlik ishqini bilan yashash insonga baxt, farovonlik keltiradi. Vatan ravnaqiga xizmat qiladi.

Prezidentimizning "Buyuklik niyatdan keladi, buyuklik mehnatdan keladi", degan so'zlarini esa yuqoridagi fikrlarning davomi deyish mumkin.

Fikrlarimiz so'ngida shuni ta'kidlash joizki, tabarruk zaminimizda kamol topgan, insoniyat tafakkuri, dunyo ilm-faniga ulkan hissa qo'shgan Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy kabi allomalarining bebafo merosini o'rganish biz uchun juda muhim. Bugungi kunda ham ilmiy va insoniy qadr-qimmatini yuqotmagan hikmatlari, o'gitlari esa bizni taraqqiyotga yetaklaydi, ong-u shuurimizni boyitadi, Yangi O'zbekistonimizda Uchinchi Renessansning ma'naviy poydevorini yaratishga xizmat qiladi.

**Saida MADJIDOVA,**  
DXX "Temurbeklar maktabi"  
harbiy akademik  
litseyi o'qituvchisi,  
Xalq ta'limi a'lochisi

# ISTIQLOLIMIZ – BAXT-IQBOLIMIZ

Bayramlar shunchaki o'yin-kulgi yoki dam olish emas, balki uning zamirida zalvorli haqiqat va orzu-istiklar yashiringan bo'ladi. Elimiz shuning uchun ham ana shunday shodlik va qutlug' kunlar ko'proq bo'lishini har bir duosida takror-takror so'rashdan charchamaydi.

Mustaqillik har bir insonning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalarda iste'dod va qobiliyatini to'la namoyon etishi, huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishining mustahkam zaminidir. Bunda inson mana shu oddiy haqiqatni to'g'ri tushunib, o'z qalbiga singdirgan taqdirdagina, o'z millatiga, Vataniga bo'lgan sadoqati oshib boraveradi. Buning natijasida odamlarni jipslashtiradigan va taraqqiyot sari yetaklaydigan milliy g'oya paydo bo'ladi. Demak, milliy g'oya odamlarning mustaqillikni to'g'ri anglashi, vaziyatni baholashi va uni mustahkamlashga undovchi qarashlarini anglatadi.

Asrlar silsilasidagi 32 yil aslida tarix uchun ko'z yumib ochgunchalik bir davr xolos. Lekin ana shu yillarda xalqimiz uchun nechog'li muhim ahamiyatga ega bo'lganini bugun har birimiz yurakdan his qilamiz. Chunki o'tgan davrda O'zbekiston har tomonlama yuksaldi, ko'p millionli mustaqil va suveren davlat sifatida shakklandi, jahon hamjamiyatida munosib obro'-e'tiborga ega bo'ldi.

Mustaqillik borasida fikr yuritganda birinchi navbatda shuni aytish kerakki, bu yillarda bebafo tariximiz, boy ma'naviy meroslarimiz, milliy davlatchiligidimiz, muqaddas dinimiz, urf-odat va an'analarimiz qayta tiklandi. O'tgan yillarning barchasi ongimizda o'chmas iz qoldirdi. Natijada mehr-oqibat, bag'rikenglik, hamjihatlik kabi oliyanob fazilatlar qaror topdi, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg'usi yuragimizning tub-tubidan o'rinn oldi.

Bugungi kunda siz transportga chiqqaningizda qanday millatga mansub bo'lsin, birorta ham qariya tutqichga osilib turgan holda ketayotganini ko'rmasiz. Yoshlar o'rinalidan turib joy berishadi, qo'llaridagi og'ir yukni ko'tarishga tutinadilar. Ko'pincha bunday holatni shu avtobusda ketayotgan xorijlik sayyohlar ko'rib hayratlanayotganining, beixtiyor yuzlarida tabassum jilvalanganining guvohi bo'lasiz.

Bizning yoshlarimiz atrofdagilar taqdiriga befarq bo'lmaganlari har qanday insonni quvontiradi. Insonga mehr, shafqat singari tuyg'ular yuksak bo'lgan yurtingni niyati xolis, kelajagi porloq bo'lishiga imyon keltirasiz. Bizning hali yosh mamlakatimiz fuqarolik jamiyatida ana shunday an'analar kurtak yozmoqda.

Tinchlik birinchi navbatda taraqqiyot elchisi hisoblanadi. Chunki xotirjamlik hukm surgan yurtda qutbaraka bo'lishi tabiiy. Mamlakatimiz yil sayin iqtisodiy jihatdan qudratli bo'lib bormoqda. Shahar-u qishloqlarimiz qiyofasi tanib bo'limas darajada o'zgarib, ko'nglimizda faxr-u iftixor tuyg'ulari jo'sh uryapti. Tumanlar markazlarida baland binolar ko'paygan. Namunali uylardan tashkil topgan katta-katta guzarlar paydo bo'ldi va ularning infratuzilmasi yaratildi. Viloyatlarimiz markazlari go'zal shaharlarga aylanib ulgurdi. So'nggi yillarda poytaxtimiz ulkan bonyodkorlik maydoniga aylandi. Ko'plab turarjoylar, ishbilarmonlik markazlari, korxonalar, xiyobonlar bo'lib etildi. Endi urbanizatsiya jarayonlarida uzoqni o'ylab qilinayotgan qurilishlar shahar tashqarisida amalgalashmoqda.

Ulardan eng muhimlardan biri hisoblangan Olimpiya shaharchasi qurilishiga o'tgan yili 9-noyabr kuni tamal toshi qo'yilgan edi. Maydoni 100 hektar bo'lgan ushbu shaharchada 10 ming o'rinni yengil atletika va futbol stadioni, 6 ta yopiq va 7 ta ochiq sport inshooti, SUV sporti saroyi, velotrek, yakkakurash, jamoaviy sport

majmualari barpo etiladi. Bu yerda 2025-yilda yoshlar o'ttasidagi Osiyo va Paraosyo o'yinlari o'tkaziladi.

Poytaxtimiz Toshkentning ko'runga ko'rka bo'lib qo'shilayotgan osmono'par uylari bilan har bir mehmonni lol etayotgan "siti"lar bugungi voqeligmizdir. Qisqa davr mobaynida qurilgan yerusti metrosi bugungi kunda poytaxtimizni deyarli qamrab olmoqda. Umuman, bugun Toshkent metropolitenining jami uzunligi 70 km.dan oshdi. Shundan 38 kilometri 1977-yilden keyin bunyod etilgan bo'lsa, oxirgi 7 yilda 32 km metro yo'li qurildi. Bekatlar soni 50 taga yetdi. Ulkan ko'priklar, hashamatli osma o'tish yo'laklari va ravon yo'llar Toshkentimiz qiyofasini butunlay o'zgartirib,unga mahobat bag'ishlagani quvonari holdir.

Poytaxtimiz markazida qisqa davrda 3 ming yildan ziyod davrni tashkil qilgan davlatchiligimiz tarixi konseptual g'oyasini o'zida yorqin ifoda etgan "Yangi O'zbekiston" bog'i barpo etilib, ishga tushirildi. Ushbu hudud yaqinida yana bir shahar – Yangi Toshkent qurilishi rejalashtirilgan. Davlatimiz rahbari joriy yil 18-mart kuni una tamal toshi qo'ygan edi. Loyihaning birinchi bosqichida 60 ming aholiga mo'ljallangan ko'p qavatlari uylar, davlat idoralari uchun ma'muriy binolar, bog'lar, ijtimoiy va iqtisodiy obyektlar barpo etiladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizdagи barcha mahallalarga fayz

kirayotganiga guvoh bo'lib turibmiz. Butun mamlakatimiz bog'-rog'larga burkanmoqda. Oddiy yo'laklarimiz bo'ylarida ham ishkomlar paydo bo'lib, tok ko'chatlari barq ura boshladi. Yurtimizda "Yashil makon" umummilliy loyihasiga asos solindi. Mazkur xalq harakati natijasida har yili millionlab nihollar ekilmoxda, yangi o'rmon va bog'lar yaratilmoqda. Yashil o'rmon va daraxtzorlar, bog'-u roq'lar atrof-muhitni musaffo saqlash, ekologik tizimni va iqlimni barqarorashtirish, tuproq va havoni tozalashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, yashillik olami bu toza havo, sog'gom hayot, uzoq umr demakdir.

Ayniqsa, joriy yil muhim voqealarga boy bo'ldi. Ko'p millatli O'zbekiston xalqi joriy yilda bo'lib o'tgan muhim siyosiy tadbirlar – yangilangan Konstitutsiyamiz bo'yicha umumxalq referendumi hamda navbatdan tashqari Prezident saylovida yuksak faollik, daxldorlik, ahillik va hamjihatlik fazilatlarini ko'rsatdi. Vatan va xalq manfaati yo'lida qanday

qudratli kuchga aylanishi mumkinligini butun dunyoga namoyon etdi. Biz referendumda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz uchun ovoz berdik. Ikki bosqichda tayyorlangan, shakllantirish jarayonida rivojlangan mamlakatlarning bu boradagi tajribalari atroficha o'rganilgan, fuqarolardan kelib tushgan 220 mingdan ortiq turli-tuman taklifning inobatga olingan bu hujjatda yurtimizda istiqomat qilayotgan aholining asl manfaatlari o'z ifodasini topdi, bugunimiz hamda kelajagimiz bilan bog'liq orzu-niyatlari o'z mujassamini topdi.

Jamiyatimizda tinchlik va barqarorlik, fuqarolar va millatlararo hamjihatlik muhiti mustahkamlanmoqda. Yangi O'zbekistonni barpo etish maqsadida keng ko'lamli islohotlar, hayotimizning barcha jabhalarini erkinlashtirish, iqtisodiyot va uning tarmoqlarini, xususiy tadbirdorlikni jadal rivojlantirish borasida katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni qisqartirish, yangi ish o'rnlari va daromad manbalarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi erishgan katta yutuqlarimizdan yana biri shuki, biz taraqqiyotga erishishning birdan bir yo'li ta'lim ekanini chuqr anglab yetdi. Shu bois ta'limni isloh qilish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. 2024-yilda investitsiya dasturi doirasida maktab qurilishiga 3 trln so'm ajratilishi va buning hisobiga 150 ming yangi o'quvchi o'rni yaratilishi ta'kidlandi.


Bugun hammamiz butun dunyoda geosiyosiy ziddiyatlar kuchayib borayotganiga shohidmiz. O'zaro ishonch muhiti zaiflashib, turli mintaqalarda notinchlik o'choqlari paydo bo'layotganiga, umumiyy xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga xavf solayotganiga va tahdidlar ortayotganiga guvoh bo'lib turibmiz. Bunday murakkab sharoitda O'zbekiston ochiq va pragmatik tashqi siyosat yo'nalishini davom ettirmoqda. Jahonning barcha davlatlari bilan o'zaro hurmat va amaliy hamkorlikka asoslangan aloqalarni tizimli rivojlantirib boryapti. BMT va boshqa nufuzli tashkilotlar va mintaqaviy tuzilmalar bilan ko'p qirrali sherikligimiz mustahkamlanmoqda.

Bugun biz o'z oldimizga Yangi O'zbekistonni barpo etishdek, Uchinchini Renessans poydevorini yaratishdek buyuk maqsadni qo'yidik. Hech shubhasiz, bu borada jamiyatimizda qaror topgan tinchlik va barqarorlikni asrab-avaylash, uni yanada mustahkamlash, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy g'oya sidiqlik ruhida tarbiyalash, ularning qalbida g'urur, iftixor tuyg'ularini, komil insonga xos fazilatlardan shukronalikni shakllantirish bugungi kunda barchamizning oldimizda turgan muhim vazifadir.

**Abdullo NASRIDDINOV,  
O'zbekiston Yozuvchilar  
uyushmasi a'zosi.  
Fazliddin HAYDAROV,  
Qurolli Kuchlar akademiyasi  
professori**

# О ТЕНДЕНЦИЯХ РАЗВИТИЯ РЫНКА ГЕОПРОСТРАНСТВЕННОЙ АНАЛИТИКИ И ПЕРСПЕКТИВАХ ВНЕДРЕНИЯ ДАННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Изучение мирового рынка передовых технологий обработки геопространственных данных показывает стабильный рост в области геопространственной аналитики (геоаналитика), ставшей эффективным инструментом анализа все более нарастающего объема информации.**





Благодаря ряду технологических и социальных факторов в настоящее время происходит быстрое **накопление** большого объема геопространственно-временных данных, поступающих из спутников, сети Интернет, мобильных устройств и приложений, а также других источников.

Такие данные создают серьезные **проблемы для анализа** и обработки с помощью традиционных программных средств, в т.ч. ГИС.

Для максимально эффективного использования всех преимуществ геопространственно-временных данных в настоящее время применяется **геоаналитика**, совмещенная с передовыми разработками в области машинного обучения и искусственного интеллекта (ИИ).

Геоаналитика позволяет осуществлять сбор, обработку и анализ пространственных данных, получить точные и надежные сведения, улучшая понимание и интерпретацию событий и процессов, раскрыть за-



висимости и тенденции между различными явлениями в отношении их географической расположности.

**Главными инструментами** геоаналитики являются ГИС, ДЗЗ и системы глобального позиционирования, а также другие технологии и методы визуализации, анализа и интерпретации геоданных. Основными ее **отличиями** от ГИС являются **масштабируемость, доступность, снижение затрат и постоянные обновления**.

Алгоритм работы геоаналитики в зависимости от конкретной задачи и используемых данных может включать этапы сбора, обработки, интеграции, анализа данных, визуализации, интерпретации и применения результатов.

Как показывает анализ, в настоящее время геоаналитика активно используется во всех развитых и многих развивающихся странах мира, а мировой рынок в данном сегменте вырос с **73,3 млрд** долл. США в 2022 г. до **85,5 млрд** долл. в 2023 г. (среднегодовой темп роста **16,6%**). Согласно прогнозам, к 2027 г. рынок достигнет **153,2 млрд** долл. (среднегодовой темп роста 15,7%).

Экономическое воздействие геопространственных технологий на мировую экономику на данный момент оценивается от **2,2 трлн** до **5,4 трлн** долл.

В 2022 г. **40%** доли рынка занимали **США** и **Канада**, которые, по прогнозам, в 2023–2028 гг. сохранят лидерство благодаря широкому присутствию ключевых игроков отрасли и активному внедрению новых технологий.

Быстрые темпы индустриализации, роста инфраструктуры и логистики в **КНР, Индии, Японии и Индонезии** обеспечивают Азиатско – Тихоокеанскому региону **2-ое место** на рынке с долей **30%**. Ожидается, что регион станет самым быстрорастущим рынком в 2023–2028 гг., доля которого вырастит более 40%.

В странах Европы (**3-е место**, доля рынка 20%) геоаналитика наиболее активно используется в **Великобритании, Германии, Франции, Испании, Италии и Нидерландах**, внедривших ее практически во всех сферах государственного управления, экономики и бизнеса.

Данная технология находит все большее применение в странах Ближ-

него Востока (**Израиль, Саудовская Аравия, ОАЭ**), Африки (**ЮАР, Кения, Нигерия**) и Южной Америки (**Бразилия, Аргентина, Чили**). На долю каждого из этих регионов приходится по 5% мирового рынка отрасли.

В настоящее время ключевыми игроками на данном рынке являются компании **Hexagon** (Швеция), **Esri, Harris Corporation** (США), **Atkins PLC** (Великобритания), **General Electric** (США), **HERE Technologies** (Нидерланды), **Topcon** (Япония), **Pitney Bowes, Maxar, Google, Trimble, Geospatial Corporation** (США) и **Bentley** (Великобритания).

Ограниченнность природных ресурсов, быстрые темпы урбанизации и развития инфраструктуры обуславливают **необходимость внедрения** правительствами геоаналитики для эффективного планирования и управления социально-экономическим развитием страны.

В частности, данная технология **применяется** в сельском хозяйстве, экологии, геологии, здравоохранении, в сфере транспорта, городского планирования, обороны, безопасности, реагировании на ЧС, используется при анализе рынка, демографическом анализе, в научных исследованиях, для моделирования изменений климата, в маркетинге и многих других сферах.

Геоаналитика является **мощным инструментом анализа** текущего состояния и выработки обоснованных предложений для принятиязвешенных решений по экономическому и устойчивому развитию государства. Ее применение помогает улучшить планирование, организацию и управление ресурсами, повысить производительность в различных сферах.

В современных условиях непрерывных технологических прорывов и растущей цифровизации, геоаналитика становится также неотъемлемым **компонентом стратегий обороны и безопасности**.

Практическое использование геоаналитики в данной сфере можно увидеть на примере ВС США, стран НАТО и других развитых армий мира, использующих ее для повышения **ситуационной осведомленности** командования и обеспечения **эффективности применения войск**.

В частности, геоаналитика применяется для сбора, анализа, обра-

ботки и визуализации, в основном, нижеследующей геопространственной информации, извлекаемой из больших объемов данных и спутниковых снимков:

**анализ ТВД** – создание детализированных и точных карт местности для планирования операций, определения тактики и стратегии, оптимальных позиций для огневых средств, а также расположений сил и средств противника;

**навигация и целеуказание** – точное определение своего местоположения, выбор оптимальных маршрутов передвижения, уточнение координат целей и наведения оружия, расчеты для воздушной и наземной навигации;

**планирование и моделирование** различных сценариев боевых действий;

**разведка и наблюдение** – сбор, анализ и визуализация данных о противнике и изменениях в местности, определение приоритетных целей и оценка степени их поражения, выявление радио- и киберактивности, координат радиоисточников и серверов;

**прогнозирование погодных условий** и ее влияния на эффективность боевых действий и др.

Интеграция данных технологий в стратегическое планирование обороны и безопасности обеспечивает оперативность применения сил и средств, повышая точность и результативность.

**В целом**, внедрение технологий геоаналитики позволит наиболее полно анализировать геопространственные данные сети геопорталов НБПД, точно отражать динамику социально-экономических процессов, объективно оценивать, моделировать и прогнозировать изменения в национальной экономике, поддерживать активное и эффективное управление ресурсами, определить потенциальные риски и возможности, готовить обоснованные предложения для принятия своевременных действенных решений.

**Даврон АБДУЛЛАЕВ,**  
**Кахрамон ЭРМАТОВ,**  
**Специалисты агентства**  
**«Узбеккосмос» при**  
**Министерстве цифровых**  
**технологий Республики**  
**Узбекистан**



## KASBIY MADANIYAT – PROFESSIONALLIK ASOSI

So'nggi yillarda milliy armiyani izchillik bilan isloh qilish va rivojlantirish, davlatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, harbiy kadrlarni tayyorlash borasida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizdagi yangi davr ruhi barcha sohalar qatori Qurolli Kuchlar tizimida ham yangilanishlarni boshlab berdi. O'tgan qisqa vaqt mobaynida mudofaa ishlari yangi bosqichga ko'tarildi. Ta'bir joiz bo'lsa, Yangi O'zbekistonning chinakam yangi armiyasi shakklandi. Ayniqsa, yurtimizda Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarining ma'naviy-axloqiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish, turli murakkab va og'ir vaziyatlarga nisbatan bardoshlilikini, yet g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetini mustahkamlash orqali milliy armiyamizning jangovar shayligi va quadratini kuchaytirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, mudofaa vazirining "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini samarali amalga oshirishga qaratilgan kompleks choratadbirlar to'g'risida"gi buyrug'ida keltirilgan ko'rsatmalarida Vatanni, milliy mustaqillikni va mamlakat hududi yaxlitligini ishonchli himoya qilish, yurtning har bir qarich yerini, asrab-avaylash uchun jonini fido qilishga tayyor bo'lgan zamonaviy harbiy xizmatchilarining kasbiy madaniyatini yuksaltirish masalalari qamrab olingan.

Mamlakatimiz Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy savyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, milliy armiyamizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etish bo'yicha aniq tizim yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasini tasdiqlandi.

Konsepsiyaning asosiy maqsadi – mustaqil, keng dunyoqarash va fikrlashga ega, imyon-e'tiqodi va irodasi

mustahkam, ma'naviyatli va fidoyi, ajodolarimizning bebafo merosiga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – Vatan himoyachilarini tarbiyalash, ularning dunyoqarashlarini, mantiqiy, ijodiy va tahliliy fikrlash doirasini kengaytirish, ona Vatan taqdiri uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakkantirishdan iborat.

Hozirgi davrda oliy harbiy ta'lif muassasalari tinglovchi va kursantlarining kasbiy madaniyatini shakkantirish davlatning harbiy salohiyatini ortib borishi, rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Uning rivojlanib borishi natijasida davlatning xavfsizligi ta'minlanadi.

2023-yil 13-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida bo'lib o'tgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida Qurolli Kuchlar tizimida askar va ofitserlarning ma'naviy-ruhiy, vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirishda yozuvchi va shoirlar, kino, teatr, televdeniye ijodkorları, ma'naviy-ma'rifiy jabhalarda faoliyat yurituvchi tashkilotlar oldiga muhim vazifalar qo'yildi. Negaki, keyingi yillarda yaratilgan, yurakka yaqin "Harbiy qo'shiqlar", "Jangovar chaqiriqlar", "Harbiy meros va jang san'ati" ifoda etilgan tarixiy-ilmiy, adabiy asarlar, ma'naviy-vatanparvarlik dasturlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Kuchli ruhiy-ma'naviy tarbiya nafaqat Qurolli Kuchlar tizimi uchun, balki mamlakat yoshlari uchun ham eng muhim vositadir. Aynan ma'naviy-ruhiy tarbiya kerak paytda qalqon, kerak paytda himoya quroli vazifasini o'tay oladi. Ana shu ma'noda hushyorlik, ma'naviy-ruhiy tarbiya, vatanparvarlik har bir yurakda uyg'otuvchi kuch bo'lishi kerak. Ma'naviy poydevorga ega bo'lmagan qalbga, g'aflat bosgan yuraklarga o'zgalar bayrog'ini tikishga hozirligini hech qachon unutmaslik lozim. "Qo'shinlar madhiyasi", "Eng

jangovar qo'shiq" hamda "Eng jangovar chaqiriq va shior" tanlovlarning o'tkazilishi ham harbiy xizmatchilar, ijodkorlar qalbida adabiyotga, san'atga mehr orgali Vatanga muhabbat, sharaflı burchga sodiqlik, yet g'oyalarga qarshi kurashish ruhini oshirishdek ezgu maqsadlarni ko'zlaydi.

2022-yil 8-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Harbiy xizmatchilarining axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Bu esa, o'z navbatida, zamonaviy harbiy xizmatchilarini tayyorlash bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning mantiqiy davomidir. Ushbu qarorga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish konsepsiysi qabul qilindi. Uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi.

Konsepsiyaning asosiy mohiyati:

har qanday og'ir va murakkab vaziyatda ona Vatanni, milliy mustaqillikni va mamlakat hududiy yaxlitligini ishonchli himoya qilish; yurtning har bir qarich yerini, o'z xalqi, ota-onasi va farzandlarini ko'z qorachig'idek asrash;

kerak bo'lsa, shu yo'lda o'z jonini fido qilishga tayyor bo'lgan harbiy xizmatchini kamol toptirish.

Konsepsiyaning amalga oshirishda harbiy boshqaruva organlari, qo'mondonlar, komandir va boshliqlar faoliyatidagi eng ustuvor jihatlar:

tarbiyaviy va ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida harbiy xizmatchilarida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, vatanparvarlik, burchga sadoqat, halollik, or-nomus, milliy g'urur va iftixon tuyg'ularini tarbiyalashga, yet g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash;

jangovar tayyorgarlik va jangovar xizmat faoliyati davomida harbiy xizmatchilarida yuqori jismoni va ruhiy zo'riqishlarga bardoshlilikni, mardlik, jasurlik va sergaklik sifatlarini, har qanday og'ir vaziyatda jangovar vazifani to'liq bajarish, harbiy-kasbiy rivojlanishni tarbiyalash;

harbiy jamoalarda jangovar o'rtoqlik va hamjihatlikni, yuksak intizom va sog'lom axloqiy-ruhiy muhitni, harbiy

xizmatchilar o'tasida o'zaro tushunish, yordam berish va og'ir sinovlarni birgalikda yengish ko'nikmalarini mustahkamlash;

shu bilan birga, oliy harbiy ta'lif muassasalarida kasbiy madaniyatga ega bo'lgan mutaxassislarini tayyorlash jamiyat istiqbolini yuksaltirishning negizi hisoblanadi.

Shuning uchun ham tinglovchi va kursantlarda kasbiy madaniyatni shakkantirish jamiyatning, millatning ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi qudratli kuch, inson va jamiyat rivojlanishining negizi sifatida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh omili hisoblanadi.

Kasbiy madaniyatga ega bo'lgan mutaxassislar millat ravnaqining poydevori sanaladi. Demak, kasbiy madaniyat nihoyatda keng tushuncha bo'lib, yurtimizda bu borada islohotlarning amalga oshirilishi har doimgidan ham dolzarb ahamiyatga ega. Shu sababli mustaqil O'zbekistonda kasbiy madaniyatli kadrlarni tayyorlashga kuchli e'tibor berillmoqda.

Bundan ko'rinib turibdiki, tinglovchi va kursantlarni tayyorlashda kasb madaniyati, madaniyatilik tushunchalari xodimlar faoliyatining ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. Madaniyat inson kamoloti sarchashmalaridan biridir.

Yoshlarning kasbiy madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan mehnatsevarlik, vatanparvarlik immunitetini shakkantirishning aniq, maqsadli chora-tadbirlarini belgilash kerak. Jamiyatda manzilli kasbiy madaniyat bo'yicha targ'ibot tadbirlarini tashkil etishda va amalga oshirishda davlat organlari va boshqa sohaviy xizmatlarning faol ishtiroti ta'minlanishi orqali yuqori natijaga erishiladi.

Kasbiy madaniyat va uni rivojlanish masalasiga yangicha qarash, ya'ni asosiy maqsad insonning o'zini o'zi chuqr bilishi, anglashi, idora qilishi, o'z-o'zini takomillashtirish, jamiyat va o'zi o'rtaсидаги munosabatlarni uyg'unlashtirish asosida qarashini zaruriy ehtiyojga aylantirmoqda. Professionallik faqat kasbiy mahoratga erishishgina emas, balki shaxsning xarakteri, intellektual fazilatlari hamdir. Shuning uchun professionallikka erishish shaxsning professional rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdır.

Kasbiy faoliyatda havaskorlikdan professionallikka o'tish jarayoni, birinchidan, ilmiy asoslangan bilim va nazariyaga tayanish, ikkinchidan, zamonaqiy ta'lif konsepsiyalari hamda kasb-hunar ta'limi mohiyatini yorituvchi axborot xizmatlaridan xabardor bo'lish, uchinchidan, o'z-o'zini takomillashtirish, to'rtinchidan, axloqiy tamoyil va mezonlarga rioya qilish, beshinchidan, asrlar sinovidan o'tgan an'analarimiz, kasb odobi xususidagi mutafakkirlerimizning boy merosi kasbiy faoliyatning zamini bo'lishi kepak.

Umuman olganda, tinglovchi va kursantlarning kasbiy madaniyatini shakkantirishda ularning ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, ona Vatan va xalqiga muhabbat, sadoqat tuyg'ularini yanada kuchaytirish talab etiladi.

G. MADRAXIMOVA,  
Qurolli Kuchlar akademiyasi  
dotsenti, t.f.n.

# “MA’NAVIYAT KARVONI” SARHADLARIMIZ BO’YLAB SAFARDA



Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo’shinlari qo’mondonligi hamda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi hamkorligida tashkil etilgan “Ma’naviyat karvoni”ning dastlabki manzili mamlakatimizning shimoliy hududi – Qoraqalpog’iston Respublikasi bo’ldi.

Erta tongdan elimiz ardog’idagi san’atkorlar – O’zbek Milliy akademik drama teatri akyori, O’zbekiston xalq artisti Gavhar Zokirova, O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosи, shoira Zulfiya Mo’mnova, Muqimiy nomidagi O’zbek davlat musiqali drama teatri akyori, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artist Alisher Otaboyev, yuridik fanlari doktori, professor Feruza Muhiddinova hamda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi harbiy-vatanparvarlik bo’limi boshlig’i Maxfirat Zikirova Nukus xalqaro aeroportida kutib oлindi.

Mehmonlar DXX Chegara qo’shinlari qarashli harbiy qismlardan birida bo’lib, yurtimiz osoyishtaligi, sarhadlarimiz daxlsizligi yo’lida jonfido qilgan qahramon chegarachilar xotirasiga hurmat baho keltirgach, Qo’ng’irot tumani “Karakalpakiya” aholi yashash punktida joylashgan madaniyat saroyi tomon yo’l oldilar. Mahalliy aholi vakillari, yoshtar, harbiy

xizmatchilar va ularning oila a’zolari ishtiroy etgan tadbirda so’z olganlar bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan bonyodkorlik ishlari, yoshtar ma’naviyatini yuksaltirishga qaratilayotgan yuksak e’tibor va Qurolli Kuchlarimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar xususida to’xtalib o’tdilar. Tadbirning badiyi qismida yurtga sadoqat, mehr-oqibat hamda insoniylikni tarannum etuvchi she’rlar o’qildi, spektakllardan badiyi parchalar namoyish etildi.

– Bizni milliy urf-odat va an’analarga xos tarzda, o’zgacha mehmondo’stilik bilan kutib olishdi. Tashkil etilgan ma’naviy tadbir davomida yig’ilgan yosh-u qari bilan dildan suhabat qurdik. Albatta, yurtdoshlarimiz, ayniqsa kelajak avlodda vatanparvarlik tuyg’ularini shakllantirish borasida bunday uchrashuvlarning o’rni beqiyos, – deydi O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artist Alisher Otaboyev.

Shuningdek, tashrif davomida mazkur hududda joylashgan DXX Chegara qo’shinlari qarashli bo’limmalardan birida sarhadlarimiz posbonlarining turmush o’rtoqlari uchun qurilgan fitnes zali, farzandlari uchun o’yingoh va kutubxonaning tantanali ochilish marosimi ham bo’lib o’tdi. Ramziy lentalar kesilgach, mehmonlar bu yerda yaratilgan sharoitlarni ko’zdan kechirdilar.

– Shunday olis chegara oldi hududida yurtimiz tinchligi, sarhadlarimiz daxilsizligini ta’minlayotgan o’g’lonlarimiz, ularning turmush o’rtoqlari va farzandlariga qaratilayotgan bunday yuksak e’tibordan nihoyatda mammun bo’ldik. Ayniqsa, harbiy oila bekalari uchun yaratilgan fitnes zalini ko’rib, ko’zim quvnadi. O’zim ham trenajyorlardan biriga o’tirib, foydalanim ko’rdim. Inson qadri, uning baxtiyor va farovon turmushini ta’minlash borasida olib borilayotgan islohotlarning yaqqol namunasi, desam, yanglishmagan bo’laman, – deydi yuridik fanlari doktori, professor Feruza Muhiddinova.

Navbatdagi manzil – “Jasliq” aholi yashash punkti. Hududdagi 54-umumta’lim maktabida o’quvchi-yoshtar, nuroniylar, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari jam bo’ldilar. Bu yerda ham samimi suhabat va qiziqarli savol-javoblar dildortar kuy-qo’shiqlar-u raqslargaga ularib ketdi.

Maktab hovlisida sarhadlarimiz posbonlari tomonidan tashkil etilgan qurol-aslahalar va harbiy texnikalar ko’rgazmasi, xizmat hayvonlari ishtirokida chiqishlar, shuningdek shijoatli harbiylar bajargan qo’l jangi usullarining namoyishi ham hech kimni befarq qoldirmadi.

Ikki kunlik safar davomida mehmonlar Amudaryo tumanining “Qilichbek” ovul fuqarolar yig’inida ham bo’lib, bu yerdagi madaniyat saroyida ikki yuz nafarga yaqin mahalliy aholi vakili bilan uchrashdilar. Elimiz ardog’idagi san’atkorlar va ma’naviyat vakillari bilan uchrashuv amudaryoliklarga ham olam-olam quvonch ulashdi.

– Men O’zbekiston xalq artisti Gavhar Zokirovaning muxlisasiman. Bugun ular bilan suhbatlashib, vatanparvarlik haqidagi fikr-mulohazalarini, she’rlari, o’ynagan spektakllaridan parchalarni tinglab, katta taassurot oldim. Umuman, san’atimiz vakillari bizning ovulga tashrif buyurganidan nihoyatda xursandmiz, – deydi Sarvinoz Mameshova.

DXX Chegara qo’shinlari harbiylari hamrohligidagi “Ma’naviyat karvoni” sarhadlarimiz bo’ylab o’z safarida davom etmoqda.

**Mayor Farida BOBOJONOVA**  
DXX Chegara qo’shinlari



# HAYAJON, SHIJOAT



Vatan himoyasi – sharaflı burch. Yurt tinchligini asrash yo'lida umrini bag'ishlagan ota-bobolarimiz izidan yurmoqlik har bir yigit uchun sharafdır. Egniga harbiy libos kiygan insonlarni ko'rgan yigit borki, ularga havas bilan qarab: "Men ham bir kuni shunday Vatan himoyasida safda turaman", deb ko'nglidan o'tkazishi shubhasiz.



Mana shunday niyati ro'yobga chiqqan bir qancha yigitlar erta tongda "Chirchiq" dala-o'quv maydonida saflandi. Ular O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi oliy harbiy ta'lif muassasalarini, xususan Qurolli Kuchlar akademiyasi va Harbiy tibbiyat akademiyasi, Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti, Bojxona instituti, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi, Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtining birinchi kursiga saralab olingan kursantlari.

Qurollasiлаha va harbiy texnikalar namoyishi bo'yicha ko'rgazmali mashg'ulotni Qurolli Kuchlar akademiyasi boshlig'ining birinchi o'rinnbosari polkovnik Muhsinali Xonsaidov kirish so'zi bilan ochib, barcha oliy harbiy ta'lif muassasalarining kursantlarini maqsad sari tashlangan ilk qadamlari bilan tabrikladi va ularga sharaflı kasblarida muvaffaqiyat tiladi.

Mazkur dala-o'quv maydonida kursantlar uchun harbiy texnikalar va qurollasiлаha namoyishi, ularning qo'llanishiga oid amaliy ko'rgazma tashkil etildi. O'quv nuqtalarida kursantlarga harbiy texnikalar, raketa-artilleriya qurollari, o'qotar va guruh qurollaring texnik tasnifi haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

Ko'rgazmada ilk bor ishtirot etgan Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi kursantlarida ham tanishuv jarayonlari yorqin taassurot qoldirdi.

– Biz bugun ilk bor haqiqiy harbiy texnikani, qurollasiлаha qo'limiz bilan ushlab ko'rdik, – deydi Toshkent davlat transport universiteti talabasi Firdavs Tillayev. – Bundan judayam hayajonlandim. Sababi avval bu kabi texnika va qurollar bilan yaqindan tanishish, ularning texnik tavsiyi haqida yetarli ma'lumot olish imkonini bo'limgan. Bugun shunday imkoniyatga ega bo'ldik.

Qurolli Kuchlar akademiyasining birinchi kursiga qabul qilingan yosh kursant Ibrat Iskandarov taassurotlarini quyidagicha bayon qildi:



# VA MATONAT



– Bugungi ko'rgazmali mashg'ulot bizga juda katta o'rganish maydonini yaratdi. Chunki bir vaqtning o'zida Qurolli Kuchlarimizda mavjud o'qotar, guruh va jangovar mashina, qurol-aslaho, havo desanti va tog' tayyorgarligi anjomlari, yoqilg'i-moylash materiallari xizmati, shaxsiy tarkibni dala sharoitida joylashtirish va ovqatlantirish, muhandislik texnikalari va o'q-dori namunalari, aloqa vositalari, motoo'qchi bo'linmalari jangovar mashinalari hamda Chegara qo'shinlari, IIV qo'shinlaridagi mavjud texnika va qurol-aslahalar bilan yaqindan tanishdik. Qurolli Kuchlarimiz jangovar salohiyati haqidagi ko'nikmalarimiz oshdi. O'zimizga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni oldik. Bu, albatta, kelgusi ta'lif jarayonlarimizda hamda xizmat faoliyatimizda asqatadi.

Shundan so'ng harbiy texnika va o'qotar qurol-aslahalar jangovar imkoniyatlarining amaliy namoyishi boshlandi. Kursantlar O'zbekiston armiyasining salohiyati, kuch-qudrati va harbiy xizmatchilarning jangovar qobiliyati haqida yetarlicha tasavvurga ega bo'ldi. Yuqori kurs kursantlari tomonidan yakson etilgan har bir shartli nishon ular tomonidan qizg'in olqishlandi.

– Bugungi ko'rgazmada 1-bosqichga qadam qo'ygan kursantlarga moddiy harbiy texnik vositalardan foydalanish bo'yicha boshlang'ich ko'nikmalarni berdik, – deydi Qurolli Kuchlar akademiyasi 2-bosqich kursanti Mirfayz Muhammedov. – O'tgan yili men ham birinchi bosqichga o'qishga qabul qilinganimda mana shunday o'quv mashg'ulotlarida tinglovchi bo'lganman. Bugun esa ishtirokchi sifatida yangi safdoshlarimga o'quv mobaynida o'rgangan bilimlarimni amaliyotda ko'rsatib, dastlabki ko'nikmalarni berdim. Bu yoshlarda harbiy kasbga qiziqishni yanada oshiradi. O'tgan vaqt ichida harbiy ta'limi professor-o'qituvchilar va professional ofitserlardan o'rgandik. Endilikda yoshlardagi, kursantlardagi vatanparvarlik tuyg'usini oshirish, ularga bilim va ko'nikmalarimizni ularishish ham muhim vazifalarimizdan biriga aylandi.

Egniga harbiy libos kiygan har qanday Vatan himoyachisi nafaqat jismonan, balki ruhan irodali, turli vaziyatlarga shay holatda bo'lishi lozim. Shundagina u o'z oldiga qo'ygan yuksak maqsad – el-yurt osyoishtaligini bekam-u ko'st ta'minlaydi. Bunda ularga dala-o'quv maydonlarida o'tkaziladigan mashg'ulotlar, milliy armiyamizning professional ofitserlari beradigan ta'lif muhim o'rinn tutadi. Qolaversa, har o'quv yili boshida o'tkazib kelinayotgan bu kabi ko'rgazmali mashg'ulotlar kursantlarning ta'lif jarayonlariga o'zgacha shiojat va ulkan taassurotlar bilan qadam qo'yishlariga zamin yaratadi. Bu esa ularning yurtni sevish, tinchlikning qadriga yetish, matonat va jasorat tuyg'ularini oshirishga xizmat qiladi.



Sukunat bilan suhbatlashish naqadar maroqli. Hayot muzlatib qo'yilganga o'xshaydi. Bir lahma bo'lsin tinib-tinchimagan odamzod uyquga cho'mgan. Bunday pallada vaqt ichkarisiga uzayib ketgandek tuyuladi. Go'yo, ikkinchi hayotimni yashay boshlayman. Parallel bir olamda bu dunyo qanchalar huzurbaxsh ekanini his qilish uchun biroz bedorlik kerak.

Gup-gup urayotgan yurak, tomiringizda oqayotgan qon zabitini his qilasiz.

Hayotda-chi?!

Bir chaqaga arzir-arzimas yumushlar uchun yelib-yuguramiz. Boshqalar tugul o'z ko'nglimizga qulog tutishga vaqt yo'q. Qalbimiz izhorlar, anduhlar, armonlar mozoristoniga aylanib boradi. Uni obod qilishga umrimiz yetadimi, yo'qmi, bu – faqat Yaratganga ayon.

Har tong tahsil olayotganim – Markazga oshiqaman. Chala-yarim nonushta, uzuq-yuluq xayr-xo'sh. Yo'l-yo'lakay sababsiz signallar, oshiqishlar, nihoyat, muqaddas maydonda safdamiz. Yuzdan ortiq odam bir lahma sukunat qo'yinda qoladi. "Tekislans", "Rostlan", "Erkin" komandasini bilan "polkovnik" maydonga kirib keladi.

65-yillik umr, 45-yillik harbiy tajribadan hayotiy saboq beriladi. Har gal ota-onani yo'qlashni unutmaslikni uqtiradi. Kimdir to'g'ri tushunib, keragini qabul qiladi, boshqasi ilojsiz g'udranadi. Kimdir "robot"ga aylanib qolgan bu odam ko'ngil ishlarini unutganini aytib nolidi. Nima bo'lganda ham, barchamiz Vatan himoyasi yo'lidagi mas'uliyat va vazifalarimizni yana bir karra yod olib, o'qishga, ishga kirishamiz.

Rostini aystsam, o'zim ham yaqinlar, do'stlar, ustozlarga yetaricha vaqt ajrata olmayotganimidan siqilib, ichetimni yeb yuraman. Kimdir yo'qlab kelayotganini eshitsam, quvonaman. Hech bo'limasa, ertalab, kechqurun suhbatlashamiz. Ataylab borishga imkon qayda?

Singlim jiyanchalar bilan biz tomonga otlanganini eshitib, sabrim chidamadi. Ular kelayotgan avtobusga qarama-qarshi tomonidan duch kelguncha yurishga qaror qildim. Qo'ng'iroqlashib, shaharga yaqin tuman chegarasida kutib oldim. O'g'il qizlarining ancha bo'yи cho'zilibdi.

Birgalikda sanatoriya yotgan ammamdan xabar oldik. Bolalarim tog'asnikiga ketgani uchun uyda yolg'iz edim. Bir mashina bo'lib yo'qlaganimizni ko'rgan bemorning ko'zlariga yosh qalqdi: "Hajlaring qabul bo'lsin, bolam!"

Uzoq gaplashib o'tirdik, suratlarga tushdik. Bizni o'z farzandidek ko'radigan ammam sidqidildan duo qildi. Davolanishdan keyin uyga o'tishini qayta-qayta tayinlab, shaharga qaytdik.

Qarindosh-u qishloqdoshlarni eslab, uyga qanday yetib kelganimizni sezmay qolibman. Singlim tayyor ovqatni isitib, choy damlab keldi. Lekin nimagadir piyolaga quyib, uzatmadni. Tindirib qo'yanini taxmin qilib, biroz kutdim. Keyin chiday olmay, sababini so'radim:


– Kelinlik vaqtim ham choy quyib bermaganman. Kimga kerak bo'lsa, o'zi ichaveradi.

Miyamda chaqmoq chaqqandek bo'ldi. Chala yotgan ishlarim, rejalar-u orzularim bir-bir ko'z oldimdan o'tdi. Odamlar ulardan voz kechishga arziydimi? Boshqalar-chi, sen uchun prinsiplarini buza oladimi? O'zimni behuda "qurban" qilmayapmanmi?! Nahot, sun'iy chegaralarimizni hatlab o'tolmasak?! Bunday qo'lbola to'siqlarning sanog'i bormi?!

Bu hodisa menga polkovnik bilan bog'liq voqeani xotirlatdi. Manaman degan Vatan himoyachilar niqohidan hayiqadigan polkovnikning "Uyimni sotib bo'lsa ham, aytganlarini qilsam bo'lar ekan", deya titragan tovushda qilgan iqrori – idrab turgan yurakning hasrati emasmi?!

Bunday hasratlar har kimda istagancha topiladi. Dadam enam (*o'zining onasi*) vafot etishidan oldinroq aroq ichishni tashlamaganiga haligacha afsuslanadi. O'zim bunday armonlarning sanog'i da adashaman.

Mashrab boboning mashhur "O'rtar" g'azali bastakori Halimjon Jo'rayev bilan gazetaga suhbat tashkil qilib berishimni bir qadri opamiz ko'p iltimos qildi. Dunyoning oxiri yo'q tashvishlari oralab savol tuzib, tayyor qilgunimcha bir oydan oshiq vaqt o'tdi. Qo'ng'iroqlashdik. Vaqtini topish biroz mushkul bo'ldi. Bir kuni opa gina qilib, yig'lab oldi. Tavakkal qilib, yo'nga tushdim. Afsuski, uyda yo'qligini bilgach, ortga qaytdim. Shafqatsiz o'lim bu suhbatga to'siq bo'ldi.



# POLKOVNIKNING ARMONI

Adabiyotshunos olim Bahodir Sarimsoqov bilan birgalikda tushlik qilayotgan mahal gazetaga intervyu qilishga kelishib oldik. Tuzgan savollarimga bosh muharrir o'zgartirish kiritishimni aytdi. Kunlarning birida qayta ishlov berib o'tirsam, filologiya fakultetini tamomlagan akamiz hayratlanib, sababini so'radi. U mahallar hozirgidek ijtimoiy tarmoqlarda birov o'lsa yoki tug'ilsa, ma'lumotlar bir necha kun aylanmaydi. Vafot etgan odam qolib, o'zining soxta obro'siga xizmat qiladigan postlar qo'yilmaydigan paytlar. Domla qazo qilgan ekan. Savollarim qiyomatga qoldi.

Ko'p shukur qilaman, ba'zi insonlar bilan shunday munosabatga kirishdimki, ularning yaqin orada o'lishini bilganimda ham, bundan ortiq e'zozlashim imkonsiz edi.

Biroz chalg'idik. Polkovnikka qaytaylik.

Uning qarshisida yuzlab tinglovchilar chuquarroq nafas olishga cho'chirdi. Har kuni ikki mahal bir soatdan oshiq tarbiyaviy soat. Kimgadir yoqar, yoqmas, bir inson 60 yildan ortiq yashab chiqargan xulosalarini biz bilan baham ko'rardi. Orqasidan yaxshi-yomon gapiradiganlar topiladi, albatta. Harbiy libosdag'i "qattiqqo'l" rahbarining yuragida armonlari borligi bizga keyin ma'lum bo'ldi. Tanbeh bersa ham, "bolam" deb gapiradigan polkovnikka mehrimiz, ehtiromimiz oshdi.

– Ota-onam biror marta dardini, tashvishini, ehtiyojini aytmagandi. Shaharga kelgan otamni biror marta kutib olib yoki kuzatib qo'yaganman. Meni

avaylashardi. Bir gal mehmonga kelganlarida onam yuragini oshib qoldilar – falon narsani olib bersang, yaxshi bo'lardi. Hayotda shunday prinsipim bor – hech qachon birovdan qarz so'ramayman. O'shanda oylikka biroz vaqt bor, yonimda esa yetaricha pul yo'q edi. Yashab turgan uyimni sotib bo'lsa ham, onamning aytganini qilishim kerak ekan.

Maoshimni olgunimcha onam ota yurtga qaytishiga to'g'ri keldi. Noiloj kuzatdim. Farzandlarim o'rganib qolgan ekan, 3-4 kun qo'msab yurdi. Boshqa viloyatdan uylanganim uchun nabiralarini erkab "gibrild bolalarim", derdi. Har gal eslaganimda yuragim idrab ketaverdi. Oyligimdan bosh-oyoq sarpo qilib, taxt qilib qo'ydim. Ammo yuragimdag'i g'ashlik tarqamasdi.

Oradan vaqt o'tib, otam mehmonga kelib qoldi. Yaxshi kunlar, yoshlikni esladik. Ketayotganlarida onamga ataganimni berib qo'yishlarini iltimos qildim. Unamadi. Yotig'i bilan tushuntirganimda miyig'ida kulib qo'yi.

Yaqinda nonushta mahali "bir ota o'nta bolani boqarkan, biroq o'nta bola bir ota-onanining ko'nglini topa olmas ekan", degandi. Gapining sababini so'rasam, aytmagandi. Endi tushundim. "Bolam, buni o'zing borganda olib borib ber, xursand bo'ladi".

Chorasiz, mehnat ta'tilini kuta boshladim. Har zamonda telefonda gaplashamiz. Hozirgidek aloqa vositalari, imkoniyatlar qayerda u mahallar!?

Bora-bora qo'ng'iroq qilsam, onamni chaqirib bermaydigan bo'lib qolishdi.

– Do'konga chiqqandi, qo'shnikida, bog'da edi...

Oxiri toqatim toq bo'ldi. "Topib kelinglar, kutaman", dedim.

Shundagina shifoxonada ekanini, og'irlashib qolganini bildim. Ertasiga ishga borib, ruxsat oldim. Samolyot uchishiga 7 soat vaqt bor. Poyezd hozir yursa ham bir sutkaga yaqin vaqt ketadi.

Kunlar issiq, mayitni uzoq ushlab turishning keragi yo'q.

Qo'ng'iroq qilib, onamning jasadini qiyomasliklarini tayinlab, yetib bora olmasligimni aytdim.

Ko'zimda yosh, qo'limda bosh-oyoq sarpo bilan uyga kirib bordim... Polkovnikning qolgan gaplari qulog'imga kirmay qo'ydi. Har gal uqtiradigan ota-ona haqidagi tayinloving boisini tushundim. Men ham enam (*dadamning onasi*) qazo qilganida janozasiga yetib bora olmagandim. Rosa 20 yil bo'libdi. Oxirgi bor o'limidan bir oy ilgari duosini olib chiqib ketgandim. Hozir ham o'sha duo qo'lting'imdan opichlab yurgandek tuyuladi.

U mahallar men talaba, qadri singlim maktab o'quvchisi edi. Endi farzandlarining maktabiga kiyim-bosh qilib ketish uchun shuncha yo'l bosib, kelib o'tiribdi. 20-30 yillik voqealar haqida gaplasha olyapmiz. Yana shuncha muddatda kim bor, kim yo'q?!

O'yalarimni singlimga sezdirmaslikka tirishib, piyolaga quygan issiq choymni ho'plagan ko'yi suhbatni davom ettirdim.

Shu lahzalarda o'zim yashaydigan parallel olamni qo'msayotgandim.

**Kapitan Aziz NORQULOV,**  
**«Vatanparvar»,**  
**O'zbekiston Yozuvchilar**  
**uyushmasi a'zosi**

# KORRUPSIYA

## islohotlar kushandası

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida xalq ravnaqi va farovonligi yo'lida amalga oshirilayotgan muhim va dolzarb masalalar qatorida korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining eng ustuvor maqsadiga aylanib ulgurdi.



**O'**zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida normativ-huquqiy bazani tizimli ravishda takomillashtirib borish choralar ko'rilmoxda. Qonunga asoslangan siyosatni amalga oshirish maqsadida 2017-yilning 3-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun imzolandi.

Ushbu qonunning maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, unda korrupsiya, korrupsiyaga oid huquqbazarlik, manfaatlar to'qnashuvi kabi asosiy tushunchalarga izoh berish bilan bir qatorda, korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari ham qayd etilgan. Shuningdek, qonun bilan bu boradagi davlat siyosatining asosiy yo'naliishlari, vakolati organlar tizimi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organları, fuqarolik jamiyatni institutlari,

ommaviy axborot vositalari va fuqarolarning mazkur jarayondagi ishtiropi hamda korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar, jazo muqarrarlagini ta'minlash va bu borada xalqaro hamkorlikni ta'minlash kabi vazifalar mustahkamlab qo'yildi.

Ushbu qonun talablaridan kelib chiqib, uning samarali bajarilishini ta'minlash maqsadida hukumatning bir qator farmon va qarorlari, shuningdek tegishli me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, ijroga qaratildi.

Belgilangan rejalarning tizimli va samarali amalga oshirilishi uchun maxsus davlat organi O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilib, bu boradagi davlat siyosatining institutsional asoslarini takomillashtirildi. Agentlik faoliyatining huquqiy asoslari, vazifa va funksiyalari, huquq

va majburiyatlarini belgilashda xalqaro normalarni ilgari surgan holda, xorijiy tajriba atroficha o'rganildi. O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi va uning hududiy kengashlari tashkil etildi.

Mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarning asosida davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Jumladan, 2021-yil 16-iyunda qabul qilingan "Davlat organlari va tashkilotlarning faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko'ra, barcha davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari, shuningdek, ustav fondida (*ustav kapitalida*) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalarini tomonidan ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxatini tasdiqlashlari lozimligi joriy etildi.

Korrupsiya holatlarining oldini olish va ularni bartaraf etishning eng muhim jihatlaridan biri davlat boshqaruvi tizimida inson omilini kamaytirish uchun davlat va jamiyat boshqaruviga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish yo'lg'a qo'yildi. Ma'muriy va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, ro'yxatga olish, litsenziyalash va ruxsat berishga doir tartib-taomillarni soddalashtirish hamda ularning

tezkorligini oshirish maqsadida barcha hududlarda Davlat xizmatlari markazlari tashkil etildi.

Korrupsiyaga qarshi murosasiz muhitni yaratish jamoatchilikning keng ishtirokida amalga oshirilmoxda. Xususan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish tizimi tubdan takomillashtirilib, Prezidentning Xalq va Virtual qabulxonalar, ishonch telefonlari hamda har bir vazirlik va davlat idoralarining ishonch telefonlari, virtual qabulxonalar tashkil qilinib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida barcha darajadagi davlat rahbarlarining sayyor qabullarni o'tkazish amaliyoti yo'lg'a qo'yildi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni hamda Prezident farmon va qarorlarida belgilangan vazifa va topshirqlar ijrosini ta'minlash, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan amaliy hamkorlik masalalarini talab darajasida yo'lg'a qo'yish borasida qator ishlar amalga oshirilib, vazirlikning bu sohadagi tegishli me'yoriy-huquqiy bazasi shakllantirildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining 2021-yil 17-noyabr kundagida 951-sonli bo'yrug'iqa asosan, vazirlikda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi tashkil etilib, yo'naliish, vazifa va majburiyatlar qat'iy belgilab berildi.

**Qurolli Kuchlar xizmatchisi  
Sarvar ELMURODOV,  
Mudofaa vazirligi  
korrupsiyaga qarshi  
ichki nazorat bo'limi  
yetakchi mutaxassis**

### SAYYOR QABUL

## Murojaatlar o'z yechimini topmoqda

Toshkent harbiy prokuraturasi tomonidan mutaxassislar ishtirokida Milliy gvardiyaning Toshkent viloyati bo'yicha, shu jumladan qo'riqlash boshqarmalari tizimida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar, xodimlar va ularning oila a'zolari hamda harbiy pensionerlar uchun ommaviy sayyor qabul hamda bo'sh ish o'rinni mehnat yarmarkasi o'tkazildi.



Qabulda 33 ta murojaat qabul qilinib, shundan 19 tasijoyida qanoatlanitirgan bo'lsa, 6 tasiga huquqiy tushuntirish berildi va 8 tasi ko'rib chiqish uchun tegishli tashkilotlarga yuborildi.

Jami 200 dan ortiq bo'sh ish o'rni taklif etilgan mehnat yarmarkasida mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashish uchun 7 nafer harbiy xizmatchining turmush o'rtoq'iga yo'llanma berildi va o'zini o'zi band qilish

shaklida 11 nafer harbiy xizmatchi turmush o'rtoq'ining bandligi ta'minlandi.

Tadbirdan so'ng hamkor tashkilotlar vakillari hamrohligida sobiq mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi Shohruz Nishonboyevga Ohangaron shahridan 1 xonali uy tantanali ravishda topshirildi.

**Adliya polkovnigi Akbar BOBOYEV,  
Toshkent harbiy prokurori**

### PROFILAKTIKA

## Huquqbazarlikka qarshimiz

Huquqbazarliklar profilaktikasi kuni munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokururaturasi va Milliy gvardiya hamkorligida profilaktik tadbir tashkil etildi.



Unda harbiy prokururaturasi va harbiy sud vakillari, Milliy gvardiyaning Toshkent shahri va viloyati bo'yicha, shu jumladan, qo'riqlash boshqarmalari, harbiy qism va muassasalari harbiy xizmatchilari va xodimlari ishtirok etidi.

Tadbirni O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokururining birinchi o'rinnosari O. Xolboyev kirish so'zi bilan ochib, huquqbazarliklarga qarshi kurashish faoliyatida e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalalarga alohida urg'u berdi.

Tadbir so'ngida murojaat bilan tashrif buyurganlar qabul qilinib, ularga qonunchilik talablari asosida tushuntirishlar berildi.

**Adliya polkovnigi Sherzod XAYITOVA,  
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokururining katta yordamchisi**

# MUROSA HAYOTNI GO'ZALLASHTIRADI

Ayolning oilada tutgan o'rni, vazifa va mas'uliyatlari haqida gap ketganda, uning hayotida muhim o'rin tutgan qaynonalik maqomi haqida albatta, so'zlanadi. Biz ham quyida shu xususda fikr yuritmoqchimiz. Chunki qaynonalik sharafiga erishgan ayolning izzati, el ichida obro'si ko'p hollarda keliniga qilayotgan muomalasi bilan belgilanishi hech kimga sir emas.

Qaynona-kelin munosabatlari azal-azaldan insoniyatning diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan masalardan biri. Shuning uchun ham bu mavzu eng ko'p munozaralarga sabab bo'ladi. Bilamizki, epli, aqli, muomalali kelinlar ro'zg'or yuritishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni osonlik bilan yengib, kelinlik vazifalarini ko'ngildagiday eplaydi va qaynonalarini ro'zg'or tashvishlaridan xalos qiladi. Ular shunday qilib, yangi oila a'zolarining ko'ngliga yo'l topishning uddasidan chiqadi. Eng muhimi, qaynonasining mehriga sazovor bo'ladi. Yaxshi qaynona esa kelinini ilk kundanoq qizim deb bag'riga oladi, bilmaganini o'rgatadi, qiyalganida yordam beradi, hayotiy yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Ya'nii kelinlariga uy-ro'zg'or ishlardira va bolalar tarbiyasida yaqin ko'makdoshga aylanadilar.

Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Xo'sh, nega ba'zi oilalarda qaynona-kelin orasida turli kelishmovchiliklar ko'p sodir bo'ladi? Mutaxassislar bunday vaziyatga

olib keluvchi birinchi sabab deb qaynonalarning o'g'lini kelinidan qizg'anishi ekanligini ta'kidlashadi. Go'yoki xonadonga yaqinda kelgan "begona"ning necha yillab oq yuvib, oq taragan jigarbandiga egalik qilib olganini ba'zi qaynonalar tabiiy qabul qila olmaydi. Shu bois kelinini o'ziga dushmandek ko'rib qoladi. Qarabsizki, kelin o'tirsra o'poq, tursa so'poqqa aylanadi. O'ttada gap qochadi, nizolar kelib chiqadi, eng yomoni, oraga sovuqchilik tushadi. Endi aytinchchi, bunday holda qaynona-kelin murosa qilib yashay oladimi?

Qaynona-kelin murosasizligining ikkinchi sababi esa ba'zi qizlarda nikohgacha oilaviy hayotda qaynonaga, qaynona-kelin munosabatlariiga nisbatan salbiy tasavvur shakllanishidir. Bunday tushunchaga ega bo'lgan qizlar qaynonani faqat salbiy qiyofada tasavvur qiladilar. Shu sababli keyinchalik oila qurib, tasavvuridagi emas, balki yaxshi, xushmuomala qaynona bilan yashasa ham murosa qilishlari

qiyn bo'ladi. Nega? Chunki u doim qaynonasidan yomon qaynonaga xos bo'lgan kamchiliklar va illatlarni axtaradi. Hayotda esa kamchiliksiz odam bo'lgan emas. Asli ideal qaynona ham, ideal kelin ham yo'q. Bu haqiqat. Mulohazali qaynonalar kelinlaridan kamchilik axtarmasdan uni o'farzandiday ko'rib, bilmaganini sabr-toqat bilan o'rgatib boradi. Kamchiliklarni yuziga solmaydi, yaxshi fazilatlarini gapirib turadi. Aqli kelin esa qaynonasining pand-nasihatlaridan kir qidirmaydi, aksincha ulardan oqilona foydalananadi.


Xalqimizda "Qaynonali kelin qarqara kelin, qaynonasiz kelin masxara kelin", degan hikmatli naql bejiz aytilmagan. Zero qaynonasining o'gitlariga quloq solib, amal qilgan kelin esa ham sarishta, ham tejamkor, ham chaqqon, ham quntli kelin bo'lib oladi.

Tamara MAMANOVA,  
Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug xotin-qizlar va  
harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan  
ishlash bo'yicha yetakchi mutaxassis

## ✓ ADABIY UCHRASHUV

# "Nasaf muqarnasi" kitobining taqdimoti

Kitob – inson kamoloti uchun eng kuchli qanon, ruhiyat ozuqasi. Har qanday savol javobini mutolaadan topish muqarrar. Shu sabab kitobga mehr uyg'otishga qaratilgan tadbirlar Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugda ham ko'plab o'tkazib kelinmoqda.



Boshqaruva apparatida o'tgan navbatdagi ziyo ulashuvchi tadbirga 40 ga yaqin badiiy, tarixiy-publisistik asarlar muallifi, Xalqaro "Oltin meros" jamoat fondi Qashqadaryo viloyati boshqaruvi raisi, "Shuhrat" medali sohibi Sharofat Ashurova taklif etildi.

Adib 2023-yilda "Fan va texnologiya" nashriyotida bosmadan chiqqan "Nasaf muqarnasi" kitobi haqida qilgan ma'ruzasida bugungi Qarshi shahrining tarix silsilasi, kitob yaratilgunga qadar qilgan izlanishlari borasida so'zlab berdi.

Tarixni o'rganish – o'zlikni anglashga yo'l ochadi. "Nasaf muqarnasi" ham Qarshi shahrida yashab o'tgan ajodolarimiz qoldirgan boy madaniy, adabiy merosi haqida so'zlaydi.

Ijodkor va harbiylar o'tasida kechgan samimiy muloqot davomida adabiyotning quadrati borasida ham teran fikrlar o'ttaga tashlandi. Ijodga oshno qalbda yovuzlik yashamasligi, sadoqat va matonat kabi oliy hislar ham murg'ak qalbga satrлardan sizib kirishi, shu sabab farzandlarimizni kitob bilan do'st bo'lishga undash lozimligi borasidagi suhbatlar barcha uchun foydalil bo'lgani, shubhasiz.

Uchrashuv bahonasida muallif okrug kutubxonasiga bir qancha kitoblar sovg'a qilgani quvonlarli hodisa bo'ldi.

Tizimli tashkil etilayotgan bu kabi uchrashuv va davra suhbatlari Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug harbiy xizmatchilari hamda Qurolli Kuchlar xizmatchilarining ma'naviyati yuksalishi uchun xizmat qilmoqda.

Janubi-g'arbiy maxsus  
harbiy okrug matbuot xizmati

Ona o'g'lining tinimsiz titrayotgan qo'llariga qarab ezildi. Ahvoli yana yomonlashibdi. Bir nuqtaga tikilib qoladigan ko'zlarida har zamon har zamonda allaqanday uchqun milt etib ko'rindi. Va qanday paydo bo'lgan bo'lsa, shu tarzda tezlik bilan g'oyib bo'ladi. Qirchillama qirq yoshida keksalardek bukchaygan, qadamlari maydalashgan. Qanday o'g'li bor edi-ya? Ona hovliga chiqdi. Barq urib ochilgan anvoi gullar, rayhonlarga termilib ko'zyoshlarini ichiga yutdi. Yaqin-yaqinlarda ham bu hovlidan odam oyog'i uzilmasdi. Odamlar yaxshi kunlariga, to'ylariga o'g'lini taklif qilgani kelar edi. To'ylarini uning vaqtiga qarab belgililar edilar. Qani u bulbulday kuylab davralarni gullatgan o'g'li!

Bolalari ham undan bezgandek. Dasturxon atrofida kampirni xafa qilmaslik uchungina jamuljam bo'ldilar. Titroq qo'lda qoshiq tutish ham mahol. Tinimsiz tiriq-tiriqa asablar dosh bermaydi. Hali choy to'kiladi, hali ovqat, nimadir ag'dariladi. Hammani asabi buziladi ammo hech kim "keling, men yedirib qo'yay", demaydi. Kelini erta ketib, kech qaytadi. Bir narsa desa, javobi tayyor: "Bu uuda kimdir ishlashi kerak-ku!"

Yo'q, ona birovni ayblamaydi, faqat o'g'lining bu notavon holini qabul qilolmay o'tanadi. O'g'li Sarvarning gurillagan davrida qurilgan uyning hashamati ham so'ngandek, g'arib ko'rindi onaizorning ko'ziga. Qishloqqa qaytgisi keldi, o'g'lini ham olib qaytishni istadi. Kelini nima der ekan? O'g'il, qiziga farqi yo'q ammo xotini ko'narmikan? Shaharning ko'rkam hududida joylashgan bu xonadonga qadami yetgan kundan boshlab, hofizning onasini ziyyarat qiluvchilar uzilmasdi. Do'stning onasi, onajonim, deb e'zozlaguvchi u "do'stlar" qayerda qoldi? Bolamning moliga, shuhratiga do'st bo'lgan ekanlar...

Hovlida kelinining qorasi ko'rindi. Ishga otlanibdi. Ortidan sumkalarini qo'ltilqab aka-singil ham chiqib keldi. Kelini xayrashish uchun qarshisida to'xtadi.

– Bugun qayningiz keladi, – dedi kelinining ko'zlariga boqmasdan og'ir so'lish olib, – qishloqqa qaytaman, qaynotangizga ham qarov kerak. Sog'lig'i avvalgidek emas, Sarvarimning bedavo dardi otasini ham ezb qo'ydi. Ko'rib turibman, bu yerda yolg'iz qolib ketyapti, na siz, na bolalarning vaqt yo'q uning yonida bo'lgani.

– Oyijon...

– Bilaman, bilaman, ishlappingiz kerak, – dedi kelinning gapini bo'lib ona, – bolalarni oyoqqa qo'yishingiz kerak. Endi faqat siz ishlayapsiz, Sarvarning dardi ortiqchalik qiladi, sizlarga. Uni o'zim bilan olib ketaman, istagan payti bolalarining oldiga kelib-ketaveradi, vaqt bo'lganida o'zingiz ham borasiz. Eshigim har doim ochiq sizlarga...

Shularni aytu turib, keksa ayolning ovozi titradi.

– Bu kasallik qayerdan yopishdi, bilmayman, – dedi kelin yig'lamsirab o'zini oqlagandek. – Yolg'iz qoldirgim kelmaydi, majburman...

– Yaxshi boringlar, – dedi ayol quruqqina qilib, avval bo'yulari cho'zilib, ovozi do'rillab qolgan nabirasining peshanasidan o'pdi, qizchani bag'riga bosdi.

Nazarida kelini yengil tortgandek tuyuldi. Bundan battarraq ezildi. O'g'li oilasi uchun keraksiz ekanligini his qildi, qanchalik og'ir bo'lsa ham ularga ko'zyoshlarini ko'rsatmadi. Kelini negadir o'zining mashinasini qo'yib, erining mashinasini haydab ketdi. Qop-qora mashinaning kema suzgandek sekin yurishini ortidan kuzatib qolar ekan, baralla yig'lab yubordi. O'g'li endi hech qachon sevimli mashinasida ko'chalarini to'ldirib yurolmasligini tan olish azobli edi. Ona savqi tabiiy bilan o'g'li una uzoqdan qarab turganini sezdi va shosha-pisha ko'zyoshlarini artib uning istiqboliga yurdi.

\* \* \*

Sarvar qishloqda ota-onasining oldida uzoq qolib ketdi. Bolalari tugul xotini ham yo'qlab kelmadidi. U bolaligidan qishloqni yoqtirmas, har doim shaharga intilardi. Qo'shiq kuylashni sevardi, katta

sahnalar orzusi bilan yonardi. Yigirma yoshli talaba yigit bir-ikki tijorat kanallarida ko'ringach, muxislari ko'paydi. Qo'shiq uchun yaralgandigan edi. Ustozlari ham mast bulbuldey kuylaydigan yigitning istiqboli porloqligini bashorat qilardi.

O'qishni bitiradigan yili bayram tadbiralarining biriga ota-onasini taklif qildi. Ustozcha qaytiribdi. O'sha kuni ustoz bilan suhbatdan keyin onasi boshqacha sevinib yurdi. Sarvar hayron bo'ldi: "nimadan buncha sevinyaptilar ekan?" Kechda hammasi oshkor bo'ldi. Ustozchi hurmatli domlalardan birining qiziga sovchi bo'libdi. Qizning tarbiyalni, o'qimishli ekani, domla ham dasti uzun odam ekanligi, uning katta sahnalarda chiqishini qo'llashini bildiribdi. Bu xabar o'g'lini hayron qoldirmadi. Yangilik emas shekilli. Shunday bo'lsa ham ota-onasi g'amxo'r ustozini uzoq alqashdi. Qarasa,

Tollar ortida eski uylar bor edi. Uylardan biri kimsasiz, ikkitasida bolalari uchirma bo'lgan keksalar, birida o'n yetti yashar o'g'li bilan hamshira ayol yashardi. Rahmatli Sodiq mirobning nabirasi deyishadi, bilganlar. Mirobning qizi bu yerlarga kelganini hech kim ko'rmagan. Qizini ko'ch-ko'roni bilan tashlab ketganicha qaytib qorasini ko'rsatmadidi. Ko'chib kelgan paytlari hamshira ayol haqida har xil gaplar chiqdi-yu, tindi. Odamovi, birov bilan ochilib gaplashmaydigan, yolg'iz bolasi, uyi, ishidan ortmaydigan ayolga odamlarning qiziqishi tezgina so'ndi. Bolasi ham shahardagi maxsus maktabda o'qirdi.

Ona hovli orqasiga o'tib o'g'lining qaytishini kuta boshladi. Qo'g'irchoqdek mayda qadamlar bilan kelayotgan o'g'liga o'zini ish bilan banddek ko'rsatib, ariqcha yoqasidagi o'tlarni yula boshladi. Ammo ko'zi yo'lda edi. O'g'li eski uylar qarshisiga

qo'yan yigit... u mening o'g'lim. Men uni tanidim, yuragim his qildi... U onasiga o'xhabdi, mehribon, rahmdil. Marjona onasi bizning qishloqdan ekanligini atyardi. Ammo Sodiq mirobning nabirasi ekanligini bilmas edim. Qishloqlarida bo'lgan to'ya tanishgan edik. O'n sakkiz yoshda edim. Qo'shiqlarimning hammasi unga atalgan edi. Rost, hamma-hammasi... "Yagonam"ning so'zlarini u yozgan. Bu yerga qanday kelib qolishdi ekan?

Kampir hang-mang bo'lib qoldi.

– Buni qayerdan bilding?

– O'sha kuni ovozini eshitdim. "Umidjon, hofizga yordamlash", dedi. Uning ovozi... meni necha yillardan beri ta'qib qiladi.

– Yanglishgandirsan... – dedi ona bo'shashibgina.

– Yanglishmadim. Men uni minglarcha ovoz orasidan ham tanib olaman.

– O'zini olib qochishidan hayron bo'lar edim.

– Nega o'shanda meni tinglamadingiz, ajayon?

– Sen vaziyat jiddiyligini tushuntirishing kerak edi.

– Unga uylanmasam bo'lmaydi, dedim. Nega, deb so'ramadingiz, yana qanday tushuntirishim kerak edi?

Jim qoldilar. Gina-kudurat, pushaymonlikdan foyda yo'q edi. Kampir ham yo'lga termilib qoldi. Ammo dala yo'lli kimsasiz edi.

Bir kuni ona o'g'lini orqa hovlidan topmadidi. Shosha-pisha dala yo'lga chiqdi. O'g'li Sodiq mirobning uyi qarshisida gunohkor bola kabi engashib turardi. Shu turishida o'ta g'arib, bechorahol ko'ringanidan onaning o'pkasi to'ldi. Chetdan kuzatib turishga bardoshi yetmadi. Hoziroq borib ona-boladan kechirim so'raydi, kerak bo'lsa oyoqlariga bosh uradi, o'g'lini kechirmagunlaricha ostonasidan hech qayoqqa jilmaydi. Kampir shaxt bilan yo'lga tushdi. Qarshilariga chiqib kelgan ayolga boqib, shaxtidan asar qolmadi. Sochlari erta oqorgan, katta-katta ko'zlariga mung cho'kib qolgan ayolning so'zsiz savol kabi turishi onani esankiratdi. O'zini qo'iga olishga urindi.

– Qizim, – dedi yutinib, – men bexabar ekanman, Alloh shohid, bilganimda edi... Sarvar uchun men kechirim so'rayman, bu ishlarning boshida men turganman, uni eshitmadim. Kechir, bizni kechir, yetimning ohi yetti daryoni quritadi, deydilar. Meni daryom Sarvar...

Kampir o'tirib qoldi. Boshidan ro'moli sirg'alib tushdi. Ayol kelib kampirning ro'molini to'g'riladi, qo'llaridan tutib turg'izdi. Titroq ovozda ko'zlariga tik boqib, ketma-ket savolga tutdi:

– Kechirmsam, orzu to'la g'o'r yoshlik yillarim qaytadimi? To'y kuni o'zimni o'ldirmoqchi bo'lganimni bilgan onam oyoqlarim ostida o'zidan ketib qolgan kunni unuttira olasizmi?! Nomusda kuyib kul bo'lib o'lgan onam... kechirmsam, u hayotga qaytadimi?! O'n sakkiz yilki, ota uyimni ko'rmadim, yuzim kuyuk chiqib ketganman, bir qiz bo'lib, onam tobutining ortidan yig'lab qolmadim, kechirmsam, bu hasratlar, armonlar meni tark etadimi?! O'g'lingizdan so'rang-chi, agar shunday notavon holga tushmasa, meni eslarmidi? Afsus, kech, juda kech esladingiz meni.

Xastalik tilini ham mahv etayotgan erak birmuncha urinib, qaltiliq qo'llini chap ko'ksiga bosib dedi:

– Sen har vaqt shu yerda eding...

Ayolning yuzida achchiq tabassum paydo bo'ldi.

– Qizim, bolamni qarg'ama, yolvoraman, uni qarg'ama.

– Men bor-yo'g'i sevdim, unga ishondim, so'z bergen edi... Sevdim, tark etildim, yuzim qora bo'ldi, onam o'lmash edi, yuzi qarolik o'ldirdi uni, men o'ldirdim... O'tgan ish o'tdiketdi, hech narsani ortga qaytarib bo'lmaydi.

Ayol ortiga o'girilib ketdi. Ko'cha eshigining nolali g'iyqillashi ona-bolani o'ziga keltirdi. Tollar orasidan ko'rinish turgan ko'k eshik yopilgan edi, qufsiz, ammo yopiq edi.

# Yagonam

## (hikoya)



bu ish ularga juda xush yoqibdi. Onasi oshxonaga chiqqanida sekin gap boshladi.

– Ayajon, domlaning qizi yaxshi-yu, ammo qo'shi tumanda ham bir qiz bor, otasiz o'sgan, qiyinchilikda katta bo'lgan, hozir bog'chada hamshira, tikuvchilik ham qiladi... Juda yaxshi qiz...

– Kalta o'layapsan-da, – dedi onasi o'g'lining ko'zlariga norizo boqib. – Shu yetim qizga uylanding ham, deylik, senga tashvishdan boshqa nima keltira oladi? Maqsading o'sha qiz bo'lsa, katta sahnani unut, o'qishingni bitirib, qishloq maktabiga musiqa mallimi bo'lib ishga kirasan. Biring bog'chada, biring maktabda... Orzularingni osongina ko'masan deb o'yalamagan edim.

– Orzularimdan voz kechmayman.

– O'sha qizni desang, senda boshqa bunday imkoniyat hech qachon bo'lmaydi. Otang daladan boshqasini bilmaydi. Domlang otangni dalachi ham demasdan azza-bazza o'ttaga odam qo'yibdi. Biz kim bo'libmizki, ularni noumid qiladigan...

Sarvar ikkilandi. Unga uylanishga va'da bergen, uylanmasa bo'lmaydi... Buni onasiga qanday aytadi? Otasiga aytsamikan? Ertasiga saharlab yo'lga otlangan otasiga yurak yutib so'z ochdi. Ota ham kecha onasi aytgan gaplarni so'zma-so'z takrorladi.

Unga imkon goldirishmadidi. To'g'riroq'i o'ziga ham shunisi ma'qul edi. Hammasi ko'ngildagidek edi: konsertlar, to'ylar... Xastalik kutilmaganda keldi. Avvaliga e'tibor qilmadi. Charchoqqa yo'ydi. Bora-bora uni mahv etdi. Bilganida g'isht qolipidan ko'chgan edi.

Onasi go'dak parvarishlagan kabi unga parvona edi. Uylari chekkada edi, Sarvar tongda uylaridan uzoq ketmay ikki tomoni tollar bilan qoplangan dala yo'lida aylanib kelardi. Bu yo'lda deyarli hech kim uchramasdi. Odamlardan o'zini tortgan kishiga shunisi ma'qul edi.

kelganda to'xtab qoldi. Turaverdi. Ona uning qoshiga uchib borishdan o'zini zo'rg'a tiydi. Shu payt tollar ortidan novchagina yigit qo'lida qalin taxta bilan yugurib chiqdi. Kampir jon halpidi o'g'li tomonga intildi. Qaltiliq kirgan oyoqlari yurgani sayin ortga ketayotgandek edi. Yigitchaning ishini ko'rib, o'zidan uyalib ketdi. Tol tagidan o'tgan ariqdan ko'chaga suv toshibdi. Sarvar suv qarshisida boladek to'xtab qolgan ekan. Yigit taxtani uning oyoqlari tagiga ko'priq kabi qo'yib o'tishiga yordamlashdi. Ko'cha yoqasidagi katta tol panasida kimningdir uzun etaklarini shamol o'ynardi.

Ona xotirjam ortiga qaytdi. Birovga qo'shilmaydigan odamovi bo'lsa ham farosatlari o'g'il tarbiyalabdi, xayolidan kechdi. Ona-bola Sarvarni tanisharmikan? Uni kim tanimaydi? To'g'riroq'i hamma tanirdi, ayniqsa "Yagonam"ni kuylaganida zal junbushta kelardi. Odamlar hozir ham eslasharmikan, bolamni? Tez so'ndi, juda tez so'ndi... Qandoq yigit edi, ko'rgan suqlanib boqardi.

Shu voqeadan keyin o'g'li dala yo'liga sayrga chiqmay qo'ydi. Orqa hovliga o'tib, kimnidir kutayotgandek dala yo'liga termilib o'tiridigan odat chiqardi. Hech kimga lom-mim demasdi. Onaning toqatni toq bo'ldi, ko'zyoshini yashirib ham o'tirmadi:

– Qanday darding bor, nega o'zgarib qolding? Sen uchun har narsaga tayyorman, ayt, seni nima qiyayapti?

– Aya, uylanishimdan avval qo'shi tumanda bir qiz bor degan edim, sizga, eslaysizmi?

– Ha, nega buni eslab qolding?

– Ayajon, ko'r ekanman, ko'r bo'lgan ekanman...

– Unday dema, kelnim ham yomon emas.

– Aya, keliningizning aybi yo'q. Hammasinga o'zim... So'z berge edim, nomardlik qildim. O'sha kuni suvdan o'tkazib

# SHOHSUPA

(xabarlar)




## YENGIL ATLETIKA



Poytaxtimizda yengil atletika bo'yicha O'zbekistonda xizmat ko'ssatgan murabbiy G.G. Arzumanov xotirasiga bag'ishlangan V xalqaro turnir o'tkazildi. Bahrayn, Qirg'iziston, Tojikiston kabi davlatlardan kelgan sportchilar o'tasida bo'lib o'tgan xalqaro turnirning ayollar o'tasidagi nayza uloqtirish bahslari yakunida hamyurtlarimiz Madina Nasriddinova, Mahliyo Tojaliyeva hamda Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakili Nargiza Qo'chqorova shohsupaga ko'tarildi.

## OT SPORTI



Slovakiyada ot sportining konkur yo'naliishi bo'yicha "Šamorín – Danube Champions Tour IV 2023" musobaqasi bo'lib o'tdi. Unda qatnashgan terma jamoamiz a'zosi Bekzod Qurbonov 2 ta oltin medalga sazovor bo'ldi. Chavandozimiz dastlab 140 sm balandlikdagi to'siqlardan sakrash dasturida barcha raqiblarni ortda goldirib, shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Ikkinci oltin medaliga esa musobaqaqaning 135 sm balandlikdagi to'siqlardan sakrash dasturida "Santa Xipika" laqabli tulpori bilan erishdi.

## PROFESSIONAL BOKS



Rossiyaning Chelyabinsk shahrida o'tkazilgan professional boks oqshomida hamyurtimiz Odiljon Aslonov ham qatnashdi. O'rta vazn toifasida ringga chiqqan Buxoro boks maktabi tarbiyalanuvchisiga Kongo vakili Erik Chimanga Katomba raqiblik qildi. Jang shiddatlari kechdi va Aslonov raqibi ustidan ochkolar hisobida g'alabaga erishdi. Aslonov faoliyat davomida 6 ta jang o'tkazib, ularning 5 tasida g'alaba qozongan, bittasida durang qayd etgan.

## SHAXMAT



Hindistonning Kalkutta shahrida shaxmat bo'yicha an'anaviy tarzda o'tkazib kelinadigan "Tata Steel India" xalqaro turnirining bu yilgi blits musobaqalarda hamyurtimiz Nodirbek Abdusattorov 2-o'rinni egalladi. Mazkur musobaqaqaning rapid yo'naliishidagi bahslarida 7-o'rin bilan kifoyalangan Abdusattorov blits o'ynlarida 11 ochko jarg'arishga muvaffaq bo'ldi.

## PARA TAEKVONDO



Livanning Bayrut shahrida para taekvondo bo'yicha Osiyo ochiq championati bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston terma jamoasi 3 tadan oltin va kumush hamda 5 ta bronza medalni qo'lga kiritdi. Terma jamoamiz murabbiyi Bobur Qo'ziyev esa "musobaqaqaning eng yaxshi murabbiyl" sifatida e'tirof etilib, maxsus kubok bilan taqdirlandi. O'zbekiston para taekvondochilari jami 11 ta medal jamg'argan holda umumjamoa hisobida 22 davlat orasida 2-o'rinni egalladi.

## PARA AKADEMİK ESHKAK ESHISH



Serbiya poytaxti Belgrad shahrida o'tgan para akademik eshkak eshish bo'yicha jahon championatida dunyoning 100 dan ziyod davlatidan sportchilar qatnashdi. Hamyurtimiz Xolmurod Egamberdiyev PR1M1X klassi bo'yicha yakkalik bahslari finalida 09:14:79 vaqt bilan marraga birinch bo'lib yetib keldi. Ushbu natija unga "Parij – 2024" yozgi Paralimpiya o'ynilar yo'llanmasini taqdim etdi.

# BAHS VA MUHOKAMALAR DAVOM ETADI

Saudiya Arabistonining Ar-Riyod shahrida og'ir atletika bo'yicha jahon championati bahslari ayni qizg'in pallaga ko'tarildi. "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'ynlariga reyting ochkolarini taqdim etadigan mazkur dunyo birinchiligidagi yurtimiz og'ir atletikachilarini, xususan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari ham qatnashmoqda.

vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari ham qatnashmoqda.



2021-yili poytaxtimiz mezbonlik qilgan og'ir atletika bo'yicha 86-jahon championatida "uy devorlari ham sportchilarimizni suyagan" va vakillarimiz 5 ta oltin, 5 ta kumush va 2 ta bronza, jami 12 ta medal jamg'argan, O'zbekiston erkaklar terma jamoasi umumjamoa hisobida dunyo miqyosida 1-o'rinni egallagandi. 2022-yili Kolumbiyaning Bogota shahrida o'tkazilgan 87-jahon championatida esa atletlarimiz 3 ta oltin, bittadan kumush hamda bronza, jami 5 ta medalga sazovor bo'lishgan, Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakili Ruslan Nurudinov (-109 kg) o'z faoliyati davomida uchinchi marta jahon championligiga erishgandi.

Saudiya Arabistonmezbonlik qilayotgan bu yilgi dunyo birinchiligi "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'ynlariga yo'llanma uchun reyting ochkolarini taqdim etishi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ushu musobaqaqaning o'tkazilish vaqtiga, ya'ni jahon championati va bir yilga kechiktirilgan "Xanchjou – 2022" Osiyo o'ynilar orasidagi juda

qisqa fursat osiyolik mutaxassislar tomonidan hamon ko'plab muhokamalarga sabab bo'lmoxda. Zero joriy yilning 2–17-sentabr kunlari qit'amiz atletlari Ar-Riyod shahrida o'tkaziladigan dunyo birinchiligidagi ishtirok etishsa, 27-sentabr – 4-oktabr kunlari Xitoya ularni Osiyo o'yninlari doirasidagi bahslar kutib turibdi. Bu qit'amiz og'ir atletikachilarini uchun o'z mahoratlarini to'liq namoyish etishlariga xalaqit berishi, o'z navbatida, murabbiyi va mutaxassislariga sportchilarni tanlash borasida ayrim muammolarni vujudga keltirishi mumkin. Amalda ham shunday bo'lmoxda. Xususan, biz terma jamoamiz a'zosi, MVSM vakili Adhamjon Ergashevdan (-61 kg) Saudiya Arabistonidagi dunyo birinchiligidagi yuqori natija kutgandik. U Ar-Riyodda 14-natijani qayd etdi. Balki Adhamjon kuch va imkoniyatlarini "Xanchjou – 2022" Osiyo o'ynlariga yoki Olimpiya o'ynilar yo'llanmasi uchun zarur ballarni to'plashda qo'l kelishi mumkin bo'lgan boshqa musobaqaqlarga, xususan dekabr oyida Qatarda o'tkaziladigan II Gran-pri turniri va 2024-yil 5-15-fevral kunlari poytaxtimiz mezbonlik qiladigan Osiyo championatiga asragandir, murabbiylari bilan shunday qarorga kelgandir?

Bu galgi jahon championatida O'zbekiston terma jamoasi hisobiga ilk medalni Muhammadqodir Toshtemirov olib keldi. -81 kg vazn toifasida bahs olib borgan atletimiz dast ko'tarish mashqida 164 kg natija bilan oltin medalni qo'lga kiritdi. Siltab ko'tarishdashgi 188 kg natija esa Muhammadqodirga mazkur yo'naliishda medal taqdim qilmadi. Lekin ikki kurash hisobiga Toshtemirov yakunda 3-o'rinni egaladi va dunyo birinchiligining bronza medali bilan ham taqdirlandi:

- Oskar Martines (Italiya) – 356 (163+193) kg
- Rahmat Abdulloh (Indoneziya) – 354 (145+209) kg
- Muhammadqodir Toshtemirov (O'zbekiston) – 352 (164+188) kg

Terma jamoamiz a'zosi Doston Yoqubov ham Ar-Riyod shahri mezbonlik qilayotgan jahon championatidagi ishtirokini yakunladi. -67 kg vazn toifasida bahs olib borgan yurdoshimiz dast ko'tarish mashqida 135 kg, siltab ko'tarish dasturida esa 168 kg, ikki kurash hisobida 303 kg natija qayd etib, 6-o'rinni egaladi. Ayollar bahsida qatnashgan hamyurtimiz Jamila Panfilova (-55 kg) esa 9-natijani qayd etdi. Shahloxon Abdullayeva (-64 kg) dast ko'tarishda 91, siltab ko'tarishda 112 kg va ikki kurash bo'yicha 203 kg natija bilan 10-o'rinni egalladi. Bu atletlarimiz garchi sovrinli o'rinnardan joy olmagan bo'lishsa-da, "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'ynilar va jahon reytingidagi muhim talablarni bajarishdi.

Jahon championati bahslari davom etmoqda. Yurtimiz sport faxri bo'lgan Akbar Jo'rayev (-109 kg) va MVSM vakili Ruslan Nurudinov (-109 kg) 16-sentabr kuni bahslarga qo'shiladi. Rustam Jangaboyev ishtirokidagi eng og'ir (+109) vaznlilar o'tasidagi bahslar esa 17-sentabr kuni tashkil etiladi.



# “Zabt ETILMAS cho’qqi yo’q...”

Olis surxonning chekka tumanida tug’ilib, jahon arenalarida yurt sha’nini himoya qilishga bel bog’lagan bugungi qahramonimiz kichik serjant Bibimaryam Suyunova bo’ladi. U bolaligidan harbiy xizmatdan nafaqaga chiqqan bobosining kasbiga havas qilar edi. Oilaviy suhbatlarda harbiylar

bilan bog’liq qiziqarli voqealar so’zlanarken Bibimaryamda bu kasbga bo’lgan mehr yanada oshib boraverdi. Qanday bo’lmasin, u ham bobosi singari harbiy bo’lishni orzu qila boshlagan edi. Vaqtlar o’tib, kollejda o’qib yurgan kezlarida bir voqe a yuz berdi-yu, uning orzulari sari yo’l ochildi...

## Bobomning izidan...

– Oilada olti farzand edik. Eng kenjamiz o’g’il. Men esa ikkinchi farzandman. Bobom harbiy xizmatdan nafaqaga chiqqanligi bois tarbiyamizga juda qattiqxo’llik bilan qarardi. Mening ismimni ham bobom qo’yan. Hayit kuni tug’igan ekanman. O’sha-o’sha menga mehri boshqacha edi. Har gaplarida hazillashib, “Mening o’g’il bola nevaramsan”, deb qo’yardi. O’zim ham bobomdan bir qadam ham ayrilmasdum. Ularga o’xshagan bir so’zli, aytgan ishini bajaradigan va qat’iyatl bo’lish uchun ham harbiylik kasbiga juda qiziqqanman.

Kollejda biz dars o’tayotgan xonaning deraza oynasidan stadion shundoq ko’rinib turardi. Bir kuni ko’pchilik yoshlar bir nechta murabbiy nazoratida qandaydir musobaqaga tayyorgarlik ko’rishayotgan edi. Dars tugashi bilan o’sha joyga bordim. Murabbiy bilan suhbatlashib, o’sha mashg’ulotlarda ishtirok etishimga imkon berishini iltimos qildim. Shunda murabbiy qo’limga miltiq tutqazib, nishonga tekkizishim uchun 5 dona o’q berdi.

Miltiq haqida dastlabki tushunchani oqanimdan keyin nishonni mo’ljalga oldim. Mashg’ulotlarda ishtirok etishim hozirgi natijamga bog’liqligini anglab turardim. Shundan bo’lsa kerak, hayajonim kuchaydi. Ammo harbiy xizmatchining neverasi ekanligim menga motivatsiya berardi. 5 dona o’qdan 4 tasini mo’ljalga aniq otdim. Shunda murabbiy yonimga kelib, “Birinchi marotaba otyapsanmi?” deya so’radi. Men esa uning hayratidan ijobji xulosasini sezib turardim. Keyin bilsam, shu kuni maydonda mudofaaga ko’maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti tasarrufidagi yozgi biatlon sport turi bo’yicha musobaqaga tayyorgarlik mashg’ulotlari o’tkazilayotgan ekan. Men ham saralanganlar safiga qo’shildim. O’sha yili viloyat bosqichida faxrlı 2-o’rinni qo’lga kiritganimiz.

## Sodiq do’st “Erma”

– “Vatanparvar” tashkiloti tomonidan tashkillashtirilgan musobaqalar harbiylar o’tasida o’tkaziladigan sport turlariga juda yaqin. Yozgi biatlon yo’nalishida yugurish, o’q otish kabi shartlarni o’z ichiga olgan musobaqadagi ishtirokim meni yanada harbiylik kasbiga yaqinlashtirardi. 2019-yil

Xalqaro armiya o’yinlarining kinologiya yo’nalishi bo’yicha tayyorgarlik ko’rayotgan harbiylarni kuzata turib, orzumga yetishish istagi kuchaydi. 2021-yil Mudofaa vazirligining tashabbusi bilan Xalqaro armiya o’yinlarining kinologiya yo’nalishi bo’yicha qizlarni saralab olish ishlari boshlanganligi men uchun katta eshilarning ochilishiga sabab bo’ldi. Saralash jarayoniga bir vaqtning o’zida 5 nafar qiz kelgan ekanmiz. O’shanda bo’lib o’tgan sinovlardan so’ng beshalamiz ham qabul qilindik. Har birimiz turli yo’nalishda mashg’ulotlarni boshlab yubordik. Menga “Erma” laqabli kichkina itni tavsiya qilisharkan, uning oldindi do’sti bilan chiqisha olmaganini ham qo’shimcha qilishdi. Sodiq do’stim bilan tez orada til topishdik. Bitta mayiz topilsa ham “Erma” bilan baham ko’rdim. Mashaqqatlari mashg’ulotlar o’z samarasini berdi va biz Jazoirda bo’lib o’tgan Xalqaro armiya o’yinlarining “Sodiq do’st” yo’nalishida 1-o’rinni qo’lga kiritdik. Haligacha vaqt topib, “Erma”ning yoniga borib turaman. U men uchun haqiqiy sodiq do’st.

## Safdoshim motivatorim

– Bobomga izdosh bo’lganimdan faxrlanaman. Meni harbiy libosda ko’rib eng birinchi xursand bo’lgan inson ham bobom bo’lgan. Bu sharafli kasbda ko’plab do’stlar orttirdim. Ular orasida menga juda katta motivatsiya beradigan va “Biz uddalaymiz!” degan qat’iy shiorni menga ham singdirib kelayotgan safdoshim kichik serjant Mavsumma Suyarova bo’ladi. Uning o’ziga bo’lgan ishonchi shu qadar kuchlik, uddalab bo’lmaydigan cho’qqi yo’qligini uning shijoatida ko’raman. “Dovyurak jangchi” ko’krak nishoniga ham uning turkisi bilan erishdim. Bunday nufuzli nishon sohibi bo’lish oson bo’laman. Bahslarda yigitlar bilan teng ravishda kurash olib borganmiz. 15 kg yuk bilan 10 km masofaga marsh yurish, xuddi o’sha masofaga yugurish va yurish kabi bir qancha shartlarni o’z ichiga olgan mashaqqatlari bahslarda Mavsumma bilan yelkama-yelka kurashdik. Alaloqibat nishon sohibiga aylandik.

## To’maris izdoshlari...

– “Dovyurak jangchi” bahslari shu qadar mashaqqatlari ediki, poyafzalimiz ichida shilinib ketgan oyoqlarimizning

yarasi bitmasdan turib, “To’maris izdoshlari” tanlovida ishtirot etishimizga to’g’ri kelgandi. Bizda esa boshqa imkoniyat yo’q va biz bu tanlovda ham g’olib bo’lishimiz kerak edi. Maktab davrlarida tarix kitobi orqali To’marisning jasorati haqida bilib olgandim. Uning qat’iyati, irodasi va matonati meni doim o’ziga jalb etib kelardi. U mashaqqatlardan qo’rqmagan, hech qachon chekinmagan va shuning uchun ham g’alaba qozongan. Modomiki, shunday buyuk ajdodimizning avlodni ekanmiz, biz ham unga munosib bo’lishga harakat qilishimiz kerak degan tuyg’u bizga kuch bag’ishladi. Tanlov so’ngida bu ishonchni to’la oqladik va g’olib bo’ldik.

## Kelgusi rejalar

– Orzularimning aksariyatiga sekin-astalik bilan erishib kelyapman. Sportchi sifatida karatening kata va qo’l jangining birinchi turi bo’yicha respublika championi bo’ldim. Endigi navbat jahon arenalarida bayrog’imizning baland ko’tarilishi va madhiyamiz jaranglashiga sababchi bo’lishni istayman. Hozirda shu maqsadlarim ushalishi uchun mashg’ulotlarni o’tayapman. Joriy yilning noyabr oyida bo’lib o’tadigan karate bo’yicha jahon championatida yuzimiz yorug’ bo’lib, championlikni qo’lga kiritish harakatidamiz. Ayol sifatida esa barcha qizlar orzu qiladigan fayzli xonardonning munosib bekasi bo’lish bilan bir qatorda, harbiy xizmatda ota-onasiga rahmat olib keladigan farzandlarning onasi bo’lishni orzu qilaman.

## Xulosa

– Tanlagan kasbimda kamol topdim. Armiya irodamni tobladi. O’zimga bo’lgan ishonchimni orttirdi. Orzu qilganim harbiy xizmat xuddi men o’ylagandek bo’lib chiqdi. Bu sohada iqtidoring bormi, harakat qil, marra seniki. Hozirda harbiy qismlarda yaratilgan sharoitlarni birma-bir sanashimning hojati yo’q. Chunki xalqimizning o’zi ochiq eshilklar kunida barchasiga guvoh bo’lgan. Sport zallari mashg’ulotlar o’tkazilishi uchun kerakli barcha jihozlar bilan to’liq ta’milangan. Mana shunday sharoitlarda faqat harakat qilish va natijaga erishish talab etiladi xolos.

“Vatanparvar” muxbiri Sherzod SHARIPOV yozib oldi.

**JARAYON**

## Hamkorlik memorandumi imzolandi

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi hamda O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi o'ttasida hamkorlik memorandumi imzolandi.



Memorandumning asosiy maqsadi xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo'lgan mamlakatimiz fuqarolarini shartnomaga asosida xorijiy mehnat bozorida talab etilgan mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish hisoblanadi. Shuningdek, ushbu hujjatda o'qish davomida fuqarolar o'ttasida vatanparvarlik tuyg'usini keng targ'ib etish va ularda Vatan tuyg'usi sifatlarini rivojlantirish belgilab qo'yilgan.

Hozirda Yevropa davlatlari, xususan, Germaniya, Litva, Latviya, Slovakiya va Polshada texnik kasb mutaxassislariga bo'lgan yuqori talabni "Vatanparvar" tashkiloti imkoniyatlardan kelib chiqqan holda qondirish maqsad qilinmoqda.

Ta'kidlash joizki, ayni paytda Yevropada 10 mingdan ziyod "CE", "D" toifadagi haydovchiga va minglab turli texnik kasb egasiga ehtiyoj sezilayotganligi o'z-o'zidan turli mamlakatlardan, jumladan, O'zbekistondan ushbu kasb mutaxassislarining Yevropa davlatlariga borib, ishshashlari uchun imkoniyat yaratmoqda.

"Vatanparvar" tashkilotining 210 dan ortiq o'quv muassasasida respublika bo'ylab yiliga o'rtacha 150 ming nafar fuqaro haydovchilik kasbiga hamda yana minglab fuqaroga texnik xizmat ko'rsatish va murakkab texnikalarни boshqarish mutaxassisliklariga tayyorlanmoqda. O'z navbatida ushbu omil tashkilotning Yevropa davlatlari talabini qondirishi mumkin bo'lgan malakali kadrlarni yetkazib berish quvvatiga ega ekanligini anglatadi.

Memorandum imzolanishi jarayonida "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov va Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi boshlig'i Jahongir Xidayxodjayev mazkur hujjatda belgilangan vazifalarni o'z muddatlarida sifatli bajarilishini ta'minlashga hamda istiqboldagi rejalarni kelishib oldi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

**BOKS**

## Harbiy sportchilar peshqadam

Nukus shahridagi 18 yoshga to'lganlar o'ttasida boks bo'yicha 2-soni sport mакtabida bo'lib o'tgan Qoraqalpog'iston

Respublikasi championatida 100 nafarga yaqin yosh va umidli sportchi qatorida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug harbiy xizmatchilaridan 8 nafari ishtirok etib, barchasi g'olib va sovrindorlar qatoridan joy oldi.



10 ta vazn toifasida bo'lib o'tgan bellashuvlarda harbiy okrug nomidan 63,5 kg vaznda ishtirok etgan kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar – Ahror Karimov hamda 67 kg vaznda ringga chiqqan Bobomurod Rahmonov yaxshi natijalarni ko'rsatib, bronza medallarini qo'liga kiritdi.



Shimoli-g'arbiy harbiy okrug vakillaridan 6 nafariga championatning final bahslariga yo'llanma berildi, shohsupaning eng yuqori pog'onasidan 3 nafar sportchi joy oldi.

57 kg vaznda ringga ko'tarilgan muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Jasurbek Meliqo'ziyev, 60 kg vaznda tengsiz ekanini isbotlagan muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Saidasror Saydaliyev hamda 71 kg vaznlilar o'ttasidagi bahslarda hammadan kuchli bo'lgan kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi Tohirbek A'zamov oltin medallarga sazovor bo'lishdi.

Final bahslariga qadar kuchli sportchilarga munosib raqib

ekanliklarini isbotlagan kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi Jo'rabe Salomonov (75 kg), kichik serjant Asilbek Sotiboldiyev (80 kg) hamda muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Ilhomjon Ismoilov (+92 kg) turnirning kumush medallari bilan yakunlashga erishdi.

G'olib va sovrindor sportchilar tashkilotchilar tomonidan diplom, medal hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Shuningdek, joriy yil 2-3-sentabr kunlari Nukus shahrida bo'lib o'tgan ushu-sanda sport turi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi championatida 61 kg vaznlilar o'ttasidagi bahslarda ishtirok etgan muddatli harbiy xizmatchi, oddiy

askar Ko'payisbek Dovjanov hamda 71 kg vaznda qatnashgan kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi Tohir A'zamov o'z vazn toifasida eng kuchli ekanliklarini isbotlab, championlik kamarlari sohibiga aylanishdi.

Nukus garnizonining ma'nayiat va ma'rifat markazida sportchilarini sharaflashga bag'ishlangan tadbir o'tkazilib, unda Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-mayor Farhodjon Shermatov navbatdagagi nufuzli sport musobaqasida muvaffaqiyatli ishtirok etgan harbiy xizmatchilarga minnatdorlik bildirdi.

**Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati**

**AVTOMODEL**

## O'zbekiston championati o'tkazildi

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan Samarqand shahrida sportning avtomodel turi bo'yicha O'zbekiston championati o'tkazildi.



Musobaqa sportchilar o'ttasida "E-1", "E-2", "E-3" va "E-4" sinflarida hamda 18 yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'ttasida "TEMP", "AM-1", "AM-2" va "K-2" sinflarida ular tomonidan yasalgan avtomodellar sinovdan o'tkazildi.

Do'stona va murosasiz kechgan bellashuv quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

**"E-1" sinfi bo'yicha:**

1-o'rin: Aleksandr Belovalov (*Andijon viloyati*);  
2-o'rin: Abdumajit Kudaybergenov (*Qoraqalpog'iston Respublikasi*);  
3-o'rin: Nodirbek Abdullayev (*Farg'on'a viloyati*).

**"E-2" sinfi bo'yicha:**

1-o'rin: Sergey Belovalov (*Andijon viloyati*);  
2-o'rin: Mixail Sukonkin (*Farg'on'a viloyati*);  
3-o'rin: Atabek Kudaybergenov (*Qoraqalpog'iston Respublikasi*).

**"E-3" sinfi bo'yicha:**

1-o'rin: Andrey Belovalov (*Andijon viloyati*);  
2-o'rin: Valeriy Vardanyan (*Farg'on'a viloyati*);  
3-o'rin: Ayapbergen Yesemuratov (*Qoraqalpog'iston Respublikasi*).

**"E-4" sinfi bo'yicha:**

1-o'rin: Aleksandr Belovalov (*Andijon viloyati*);  
2-o'rin: Yuriy Kiselov (*Farg'on'a viloyati*);  
3-o'rin: Dilshodbek Eshmuromov (*Surxonaryo viloyati*).

**"AM-1" sinfi bo'yicha:**

1-o'rin: Artur Vardanyan (*Farg'on'a viloyati*);  
2-o'rin: Sardorbek Kudaybergenov (*Qoraqalpog'iston Respublikasi*);  
3-o'rin: Quvonchbek Shodmonov (*Surxonaryo viloyati*).

**"AM-2" sinfi bo'yicha:**

1-o'rin: Sultonbek Tlemisov (*Qoraqalpog'iston Respublikasi*);  
2-o'rin: Boris Ivjenko (*Farg'on'a viloyati*);  
3-o'rin: Muhammadali Jumanazarov (*Surxonaryo viloyati*).

**"TEMP" sinfi bo'yicha:**

1-o'rin: Shamil Bakov (*Farg'on'a viloyati*);  
2-o'rin: Rasul Davletyarov (*Qoraqalpog'iston Respublikasi*);  
3-o'rin: Muhammadyusuf Rahmaddinov (*Surxonaryo viloyati*).

**"K-2" sinfi bo'yicha:**

1-o'rin: Sherzod Hoshimjonov (*Andijon viloyati*);  
2-o'rin: Andrey Kostyukov (*Farg'on'a viloyati*);  
3-o'rin: Hayitmurod Omonov (*Surxonaryo viloyati*).

**Jamoaviy hisobda:**

1-o'rin: Farg'on'a viloyati;  
2-o'rin: Qoraqalpog'iston Respublikasi;  
3-o'rin: Surxonaryo viloyati.

Championat davomida harbiy orkestr jamoasining kuy-qo'shiqlari va qo'l jangi bo'yicha ko'rgazmali chiqishlar barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

G'olib va sovrindorlar "Vatanparvar" tashkilotining diplom, medal va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

**SAYOHAT**

## Ochiq eshiklar kuni

Milliy armiyamizda harbiy-vatanparvarlik tadbirlarining ko'plab o'tkazilishi va ularda yoshlarning ishtirok etishi, o'sib kelayotgan yosh avlodning Vatan himoyasiga bo'lgan qiziqishi ortishiga, ona yurtga muhabbat tuyg'usi bilan ulg'ayib, komil insonlar bo'lib yetishishiga katta hissasini qo'shadi.

Mudofa a vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutida maktabgacha ta'limi bo'limi va tuman ma'naviyat bo'linmasi bilan hamkorlikda Zangiota tumani 38 - umumta'lim maktabining o'quvchisi yoshlari uchun ochiq eshiklar kuni o'tkazildi.

Sayohat davomida o'quvchilar harbiy institut faoliyati hamda o'quv jarayonlari, shuningdek kursantlarning ta'lim olishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar, zamonaviy o'quv sinflari, ilmiy tadqiqotlar laboratoriysi va sport majmuasi bilan yaqindan tanishdi.

Kursantlar tomonidan o'tkazilgan mahorat darslaridan o'quvchi-yoshlar o'zlariga kerakli ma'lumotlarni oldi va tadbir yakunida tashkilotchilarga o'z minnatdorligini bildirdilar.



**Mayor Sherqo'zi XAKIMOV**  
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti

**“QUVNOQLAR VA ZUKKOLAR”**

## Iqtidor va qobiliyat uyg'unligi

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent viloyati kengashi tashabbusi bilan Toshkent harbiy okrugi qo'mondonligi, mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti, "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati viloyat bo'limi bilan hamkorlikda kuch tuzilmalaridagi harbiy qismlardan tuzilgan jamoalar o'rtasida "Quvnoqlar va zukkolar" ko'rik-tanloving harbiylar ligasi o'tkazildi.

Ko'rik-tanlov yosh harbiy xizmatchi va xodimlarning ijtimoiy-ma'naviy bilimlарини yanada mustahkamlash hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, bo'linmalar shaxsiy tarkibi o'rutasida sog'igom raqobat, ma'naviy-axloqiy muhitni qaror toptirish, tanlov ishtirokchilarning ijodiy iqtidorlarini namoyish etishlari uchun imkoniyat yaratish, harbiy xizmatning ustuvorliklari va xizmatdan faxlanish his-tuyg'ularini yuksaltirish, harbiy qism va muassasalarining badiiy havaskorlik jamoalarini shakllantirish maqsadida tashkil etildi.

Jamoalar 4 ta shart bo'yicha bellashdi. Tanishuv shartida ishtirokchilar o'zlarini tanishirish xarakteriga ega bo'lgan hamda hazil-mutoyiba, kuy-qo'shiq, raqs va boshqa satirik-yumoristik sahna ko'rinishlari uyg'unlashgan chiqishlarini namoyish qilishi.

Navbatdag'i savol-javob, musiqiy chiqish va kinotanlov shartlarida ham jamoalar bir-birlaridan qolishmagan holda, o'z iqtidor va qobiliyatlarini mohirona ko'rsatishdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, 1-o'rinni O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi jamoasining "Gvardiya sherlari" jamoasi qo'lga kiritdi. Ikkinci va uchinchi o'rnlarga Mudofaa vazirligining "Yangi yulduzlar" va Favqulodda vaziyatlar vazirligi Toshkent viloyati bo'yicha boshqarmasining "Qutqaruvchilar" jamoalarini sazovor bo'lishdi. G'olib va sovrindorlar munosib rag'batlantirildi.



**Erkin SHAROPOV**

**UCHRASHUV**

## YANGI MAQSADLARGA YO'L OCHDI

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining hududiy kengashlari tomonidan o'sib kelayotgan yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma'naviy-axloqiy sifatlarini kamol toptirish, harbiy xizmatga qiziqtirish, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish hamda hayotda o'z o'rinalarini topishlari uchun kasb-hunarga yo'naltirish borasida turli targ'ibot tadbirlari o'tkazib kelimoqda.

Shunday tadbirlardan biri Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida joylashgan "Yoshlar oromgohi" da o'tkazildi. "Vatanparvarlar" tarbiya va sport-sog'igomlashtirish loyihasi doirasida o'tkazilgan mazkur tadbir "Vatanparvar" tashkiloti Toshkent viloyati kengashi hamda O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda tashkillashtirildi. Unda mahallalardagi tarbiyasi og'ir, ichki

ishlar organlarida profilaktik hisobda turuvchi yoshlar ishtirok etdi.

So'zga chiqqanlar "Vatanparvar" tashkiloti faoliyati, bugungi kunda tashkilot tomonidan yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi hamda sportning texnik turlarini ommalashtirish yo'nalishida amalga oshirilayotgan ishlari hamda bugun mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan texnik kasb-hunarlar haqida batafsil ma'lumot berishdi.



Tadbir davomida Chirchiq avtomobil maktabi sportchilari tomonidan o'q otish sport turi bo'yicha mahorat darslari ham tashkil etildi. Yoshlarga o'q otish bo'yicha o'z mahoratlarini amalda sinab ko'rishdi. Tashkilotning sport seksiyalarida shug'ullanib respublika va xalqaro musobaqalarda qator yutuqlarga erishayotgan championlar bilan bo'lgan uchrashuv, ayniqsa qiziqarli

bo'ldi. Samimiyo muloqot aksariyat yoshlar qalbida sportning texnik va amaliy turlari bilan shug'ullanish istagini uyg'otdi.

Shu kuni yoshlar uchun tashkilot tizimida faoliyat yurituvchi "Karting", "Yozgi biatlion", "Pnevmatik quroldan o'q otish", "Aviamodel" kabi sport seksiyalarining ko'rgazmalari va tashkilot faoliyatini o'zida aks ettirgan videorolik namoyish etildi.



**Baxtiyor YO'LDSHEV**

"Vatanparvar" tashkiloti Toshkent viloyati kengashi



# ISHLAR TIZIMLI VA SAMARALI

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Buxoro viloyati kengashi tasarrufidagi Jondor tumani o'quv sport-texnika klubida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyalash borasidagi ishlar tizimli, bosqichma-bosqich hamda samarali tashkil etilmoqda

Xususan, shu maqsadda tumandagi barcha mahalla fuqarolar yig'irlari, o'quv muassasalarini va chekka hududlarda ham ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha ko'plab ko'rgazmali chiqishlar hamda tadbirlar tashkil etilyapti. Birgina joriy yilning o'tgan oylari mobaynida tashkilot tomonidan harbiy-vatanparvarlik yo'nalishi bo'yicha 35 ta, ma'naviy-ma'rifiy 24 ta hamda 21 tadan ortiq ommaviy sport tadbiri o'tkazildi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ayni paytda tashkilotda sportni ommalashtirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Klub qoshida "Havo miltig"idan o'q otish", "Yozgi biatlon", "Motokross", "Karting", "Duatlon" kabi seksiya va to'garaklar faoliyat olib bormoqda.

– Tashkilotimizdagi beshta to'garak va seksiyada jami 65 nafardan ziyod iqtidorli yosh mavjud sport turlari bo'yicha muntazam shug'ullanib kelishmoqda, – deydi O'STK boshlig'i Tavakkal Ergashev. – Turli muhim sanalar, belgilangan reja asosida viloyat va tuman miqyosida bir necha bor sport musobaqalari tashkil etildi. Buning natijasi o'laroq, sportchilarimiz respublika, viloyat miqyosidagi musobaqalarda muvaffaqiyat qozonib kelishmoqda. Shulardan Asadbek Rajabov motosport bo'yicha respublika championi bo'lsa, Dinara Shavkatova, Hursanoy Choriyeva, Ozodbek G'ulomov, Firdavs Sharipov o'q otish sport turi bo'yicha viloyat q'oliblaridir.

Albatta, o'tkazilayotgan harbiy-vatanparvarlik va sport tadbirlarining barchasi tuman hokimligi, mudofaa ishlari, xalq ta'limi hamda Yoshlar ishlari agentligi bo'limganlari bilan hamkorlikda tashkil etilmogda.

Shu kunlarda tashkilotning yana bir muhim yo'nalishi bo'lgan haydovchilar tayyorlash borasida ham muayyan natijalarga erishilmoxda. Ayni paytda bu yerdə "B", "BC", "BE", "CE" hamda "D" toifali haydovchilar tayyorlanmoqda. Shuningdek, haydovchilar malakasini oshirish kurslari ham tashkil etilgan. Joriy yilning o'tgan 9 oyidavomida 775 nafar haydovchi tayyorlanib, bu borada belgilangan rejaning to'lq bajarilishiqa erishildi.

O'z navbatida, malakali mutaxassislar tayyorlash uchun tashkilot yetarli moddiy-o'quv bazaga ega. Zamонавиъ синфронлар, зарур шарт-шароитлар, барча керакли техник құримлар hamda transport vositalari bilan ta'minlanganligi bo'lajak haydovchilar malakasini oshirishda har tomonlama qo'l kelmoqda.



# YOSHLAR FAOL ISHTIROK ETMOODA

Yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash ishlarini bugungi kun talabi asosida tashkil etish borasida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining

Xorazm viloyati kengashi tasarrufidagi Urganch tumani o'quv sport-tekniqa klubi jamoasi tomonidan ham muayyan ishlar amalga oshirilmogda.

Chunonchi, klub jamoasi tashabbusi bilan tumandagi mahallalar, o'quv muassasalari hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkazilayotgan barcha tadbirlar shular jumlasidandir.

– Albatta, tuman mudofaa ishlari, xalq ta'limi bo'limlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda ma'naviyat targ'ibot markazi tuman kengashlari bilan hamkorlikda o'tkazilgan tadbirlarimizda yoshlardan faol ishtirok etmoqda, – deydi O'STK boshlig'i Davronbek Qodirov. – O'z navbatida, bunday tadbirlar yoshlarning qalbida ona



Vatanga muhabbat va sadoqat hissini hamda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

anamniyatga ega.  
Shu kunlarda klubda  
ommaviy kasb xodimlarini  
tayyorlash, sportning texnik  
va amaliy turlarini rivojlantirish,  
turli sport to'garaklari ishini  
yo'lga qo'yish borasida ham bir  
qancha amaliy ishlar qilinmoqda.  
Ayni paytda klub qoshidagi "Havo  
miltig"idan o'q otish", "Aviamodel" va  
"Yozgi biatlon" kabi sport seksiyalarida  
faoliyat yuritayotgan yoshlardan turli sport  
musobaqalarida ishtiroy etib, yuqori o'rnlarni qo'lga  
kiritmoqda.

Kintiroqda.  
Ma'lumki, zamonamizning shiddat bilan rivojlanib borishi, haydovchi tayyorlovchi maktablar faoliyatini ham bugungi kun talablariga javob berishga undaydi. Shu bois ushbu talabdan kelib chiqqan holda mazkur klubda ham yoshlar uchun kerak bo'ladigan kasb-hunar o'rgatish borasida ham amaliy ishlar qiliniyapti. Buning uchun mavjud sharoitlar xodimlarning samarali nehnat qilishlari uchun yanada keng imkoniyatlarni yaratmoqda. Ayni paytda bu yerda "B", "BC", "BE", "CE" hamda "D" toifali aydovchilar tayyorlanmoqda.



# NOQULAY SAVOLLARGA QULAY JAVOB IZLAYMIZ

Inson yaralibdiki, savollar ham tug'ilaveradi. Ayniqsa, yosh bolalarining savollari tugamaydi, deyavering. Ba'zida bolalarimiz tomonidan berilgan ayrim noqulay savollar bizni o'yantirib qo'yadi. Ko'pincha aldash yoki javob bermaslik bilan vaziyatdan chiqishga urinamiz. Ammo bu xato yechim.

Bir donishmand aytgan ekan: noqulay savollar bo'lmaydi, shunchaki, noqulay javoblar bo'ladi. Bolakay sizga berayotgan savol oddiy va jo'n. Ammo unga to'g'ri va sodda javob qaytarish ancha mushkul. Aniqlanishicha, ota-onalarining har to'rtadan biri farzandining savoliga javob bera olmaydi. Uch-besh yoshdagi bolaning ongida "Nima uchun?", "Nega?", "Qanday qilib?" degan savollar g'ujg'on o'ynaydi. Tabiiyki, u o'z qiziqliklariga ota-onasidan javob izlaydi. Bu pallada bolaga to'g'ri javob berish juda muhim. Quyida eng ko'p tarqalgan savollar ro'yxatini ko'rib chiqamiz.

## "MEN QAYERDAN PAYDO BO'LGANMAN?"

Albatta, har bir bolani o'zining qayerdan va qanday paydo bo'lib qolgani qiziqtiradi. Umuman, barcha bolalar qanday yaraladi? Savollar orasida eng mashhuri bo'lgan bu jumlalarga har bir ota-onasi turlicha javob beradi. Afsuski, javoblarning deyarli barchasi cho'pchakdan iborat.

## SIZNING XATO JAVOBLARINGIZ:

1. "Do'kondan xarid qilganmiz". Ko'pchilik ota-onasi shu javobda to'xtalib qo'ya qoladi: axir do'kondan hamma narsani sotib olish mumkin. Xo'sh, bunga ishongan farzandingiz bir kuni sizni do'konga sudrab uka yoki singilcha sotib olishga undasa-chi? Unda nima bahona topasiz? Yo bo'lmasa, do'konga xaridga kirgan mahalingiz u peshtaxtalarda negadir bolalar sotilmayotganini ko'rib, yana ajablanadi va savolini takrorlaydi. Savol ketidan savollar tug'ilaveradi.
2. "Seni laylak tashlab ketgan". Bu ham ommabop javob. Ayniqsa, uch yoshli bola uchun. Multfilmlarda ham shunga o'xshash manzaralarni ko'rgan bolakay bunga astoydil ishonadi. Lekin u umuman qayerdan paydo bo'lgan? Laylak uni qayerdan olib kelgan? Yoki u laylaklar orasida paydo bo'lganmi? "Tashlab ketgan", "Olib kelgan"... yo'q, bu javoblar bolakayning aynan sizlarga, ya'ni o'z ota-onasiga tegishli ekaniga katta shubha tug'diradi. Buning ustiga uka yoki singilchasining laylak emas, tug'uruqxonadan mashinada olib kelishgani uni yanada hayron qoldiradi.
3. "Sen lo'lilar aravasidan tushib qolgansan". Hazilkash amaki-yu tog'alarning jiyanlari bergan savoliga javobi. Ayniqsa, bola xarxasha qilganda qo'rqtish uchun ko'p ishlataladi. "Yana yig'lasang, lo'liga berib yuboraman". Bu gapni umuman ishlatmaslik kerak. Yo'qsa, bolada oilaga begonalik hissi, qo'rquv tuyg'usi uyg'onadi.
4. "Sen qornimda yaralgansan, keyin shifokorlar qornimni yorib seni olishgan". Haqiqatga ancha yaqin. Ammo oxiri sal qo'rjinchi. Bolada shifokorlarga nisbatan qo'rquvning paydo bo'lishi shu javobdan bo'lsa, ehtimol. Qorinni yorish... bola buni tasavvur ham qilolmaydi, tasavvur qilsa ham naqadar dahshatligini o'yaydi. Onasining uka yoki singil olib kelishini istamaydi, sababi onasiga og'ir bo'lishini biladi.

**To'g'ri javob:** bolakayga haqiqatni oddiy va ijobji so'zlar bilan bildiring. "Men va dadang seni dunyoga kelishingni istaganmiz. Qornimda paydo bo'lib ulg'aygansan. Vaqt kelib yorug' dunyoga chiqqansan. O'shanda juda xursand bo'lganmiz. Mittigina shirintoy eding... Barcha bolalar o'z onasining tanasida paydo bo'ladi. Oilalar shu tariqa vujudga keladi". Shunga o'xshash so'zlar bilan

bolajonning aynan sizlarga, ya'ni OTA-ONAsiga tegishli bo'lganini bildiring. Bu o'tdagagi mehr rishtalarini mustahkamlaydi. Bola o'zining kimlardir tomonidan tashlab ketilgani, sotib olingani, topib olingani kabi mavhum gaplardan ko'ra, shu to'g'ri javobni mamnun qabul qiladi.

uka yoki singlisi paydo bo'lgach, bolada rashk, qizg'onish hissi ham shakllanadi. U go'dakka ko'proq e'tibor qaratilayotgani, o'zi esa chetga chiqib qolganini sezib, shunday savollarni beradi.

**To'g'ri javob:** unga ota-onasi farzandlarini bir xilda yaxshi ko'rishini aytting. "Onangni ona bo'lgani uchun, seni o'g'limliging, singlingni qizim bo'lgani uchun ham yaxshi ko'raman. Yaxshi ko'rishni cheklab yoki kamaytirib bo'lmaydi" deyishingiz uni oz bo'lsa-da tinchlantiradi. Buni amalda ham ko'rsatib, katta va kichik farzandlaringizga bab-baravar mehr bering.

## "NEGA DADAM (OYIM) BILAN URISHYAPSIZLAR?"

Turmushda har xil vaziyatlar bo'ladi. Ba'zan kattalar o'tasidagi bahs janjal bilan yakunlanishi ham mumkin. Bunga guvoh bo'lgan bolada esa noxush savollar tug'iladi. Go'yo ota-onasi uni deb urishayotgandek tuyuladi. Otasining jahli, onasining ko'zyoshi esa bola ko'nglida salbiy hissiyotlarni uyg'otadi. Bari tinchigach bola yuqoridagi savoloni berishga jazm qiladi.

**To'g'ri javob:** o'sha payt qanday holatda bo'lishingizdan qat'i nazar, bolangizga bosiqlik bilan javob bering. Kattalar garchi bir-birini yaxshi ko'rsa-da, ba'zida tortishib turishini, bu tezda o'tib ketishini aytting. Unga ota (ona)sini aslo yomonlamang! Yaxshisi, umuman bolalarning yonida janjallashmaslikka odatlaning. Shunda ortiqcha savollar ham paydo bo'lmaydi.

## BOLALARING SAVOLLARIGA JAVOB BERISH CHOG'IDA:

- bola o'z savollari bilan aynan sizga murojaat qilayotganidan, avvalo, mammun bo'ling. Chunki u sizga ishonyapti, siz u uchun bilag'onsiz;
- javob berish chog'ida bolanining yoshi, bilim doirasi, jinsini hisobga oling;
- bolakayni aldamang, umumi javob ham bermang. Savol ketidan berilayotgan savollariga sabr bilan to'g'ri javob bering;
- bolanining savollariga ertaknamo javoblar qaytarmang. Vaqt o'tib u buning lof ekanini bilib oladi va sizga ishonmay qo'yadi;

- savollarga "Keyin javob beraman", "Hozir bandman", "Ota (ona)ngdan so'ra", "Bema'ni gaplarni yig'ishtir!" kabi jumlalar bilan javob qaytarmang;
- uning savollari ustidan kulmang;
- javoblaringiz bola bilim doirasining kengayishiga ham sabab bo'isin;

- agar javoblaringizni bola tushunmasa "Biroz katta bo'lsang, yana tushuntirib beraman", deb javob bering. Bu "Baribir hech nimani tushunmaysan, dedim-ku!" degandan ko'ra yaxshiroq.

Farzandlaringiz kamolotida shunday noqulay savollar ham muhim ahamiyatga ega. Ularga doim qulay javob qaytaring. Har bir kuni turli savollarga to'la bolakay o'zicha olamni kashf etyapti. Bunda ota-onasi sifatida faol ishtiroy eting.

# Koinotdan ham ko'rinuvchi inshoot




SHU SONNING  
ELEKTRON SHAKLI



Xitoning shimoli-g'arbiy qismida qad rostlagan, Sariq dengizdagi Lyaodun qo'lting'didan boshlanib, g'arb tomon cho'zilgan Buyuk

Xitoy devori ko'hna Chin me'morchiligining ulkan va noyob namunasidir. U miloddan avvalgi

IV–III asrlarda xoqon Sin Shi Xuandi farmoniga binoan, tashqi dushmanlar tajovuzidan saqlanish, chegaralarni mustahkamlash, savdo karvonlari xavfsizligini ta'minlash maqsadida tiklangan.



Bu ishga ikki milliondan ortiq kishi, jumladan, ko'plab askarlar va qarollar ham jalb etilgan. Ular kecha-yu kunduz tinim bilmay ishlashgan. Bunyodkorlik yumushlari bir necha asrlar davomida olib borilgan. Buning o'ziga xos sabablari bor. Avvalo, devorga ilk tamal toshi qo'yilgan davrda qurilish texnikalari rivojlanmagan, ikkinchidan, u vaqt o'tgani sayin qor-yomg'i va shamollar ta'sirida yemirilgan. Ustiga-ustak, yog'iylar ko'p bor hujum qilib, ayrim qismlarini buzib ketishgan. Shunga qaramay, devor miloddan avvalgi II va I asrlarda g'arbg'a tomon 500 kilometrga uzaytilgan. XIV–XV asrlarda uni qurish va mustahkamlash ishlari davom ettirilgan. 1953-yili esa Pekinga yaqin bo'lagi ta'mirlangan.

Buyuk Xitoy devori ikki qavatl bo'lib, balandligi 6,6 metr, ayrim joylari bundan-da balandroq. Poydevorining kengligi – 6,5 metr, ustki qisminiki – 5–5,5 metr. Uzunligi qariyb 6 ming kilometrga teng. Devor mamlakat poytaxti Pekin shahridan 40–45 kilometrcha shimoli-g'arbdan janubi-g'arbg'a burladi, so'ngra Su'jou shahridan o'tib, Gansu o'lkasidagi Szyayuyguan qal'asida tugaydi.

U taroshlangan qattiq va rangdor tog' jinslari, g'ishtlar hamda loydan ko'tarilgan. Har 60–100 metrda minoralar, muhim strategik ahamiyatga ega hududlar va tog'li yo'llar yoqasida istehkomlar mavjud bo'lgan. Inshoot niroyatda qalinligi bois ustidan jang aravalari, otliq qo'shinlar bemalol saf tortib o'tishgan.

Bu devor haqida talay doston va rivoyatlar ham to'qilgan. Ulardan birida aytilishicha, qurilish boshlangan dastlabki kezlarda ish yurishmay, devor o'z-o'zidan qulab tushaveribdi. Bundan ajablangan xoqon ko'pni ko'rgan allomalarni mashvaratga to'plab, maslahat qilibdi. Shunda donishmandlar oqsoqoli hech kimning xayoliga kelmagan g'alati bir taklif kiritibdi. Aniqrog'i, devor ostiga endigina turmush qurgan yigit yoki qizni ko'mib, qurban qilish zarurligini, ana shundagina muddaoga erishish muqarrarligini aytibdi. Xoqon amriga ko'ra, mulozimlar niroyatda go'zal qizga uylanayotgan Van ismi bir yigitni topib kelishibdi. So'ngra uni mumiyolab, devor ostiga ko'mishibdi. Qarabsizki, istehkom qulamaydigan bo'libdi, bora-bora uzunligi o'n ming (*to'rt million metr*)ga yetibdi. Alqissa, u

xitoy tilida "Van li chongchang" deb nomlanibdi. Bu "O'n ming uzunlikka ega devor" degan ma'noni anglatadi. Unga Vanning oti qo'shilgani uchunmi, keyinchalik Xitoya bu ism ramziy ma'noda keng tarqalib ketadi.

Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida esa jahongir Iskandar Chin mamlakatining Qirvon Navohisi aholisini ya'juza-ma'juzlar zulmidan asrash uchun tarkibi mis, qalay, rux, temir hamda toshlardan iborat mustahkam va muhtasham istehkom qurdirgani hikoya qilinadi. Albatta, asarda "Saddi Iskandariy" deya tilga olingan, aslida "Buyuk Xitoy devori" nomi bilan mashhur bo'lgan ulkan inshootga oid ma'lumotlar afsonaviy tarzda bayon etilgan. Shunga qaramay, bu dalillar mazkur devorning o'ta qadimiyligidan va azal-azaldan olamaro mashhurligidan dalolat beradi.

Fazogirlarning ta'kidlashlaricha, Buyuk Xitoy devori koinotdan ham bemalol ko'rinish turadi. Endilikda u turli millat-u elatlarga mansub sayohatchilar qadami uzilmaydigan umrboqiy ziyoratgohlardan biriga aylangan.

**Internet materiallari asosida tayyorlandi.**



MUASSIS

O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
MUDOFAA  
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:  
general-major Hamdam Qarshiyev  
polkovnik Otobek Yuldashev  
polkovnik Alisher Boboxonov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'yozmalar taqzir qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.  
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

**Bosh muharrir:**  
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.  
**Telefonlar:**  
kotibiyat: 71 260-36-50  
buxgalteriya: 71 260-35-20  
yuridik bo'lim: 71 260-29-41  
faks: 71 260-32-29

**Nabvbatchi:** podpolkovnik Gulnora Hojimurodova  
**Sahifalovchi:** Dilnoza Meliqo'ziyeva  
**Musahih:** Mastura Qurbonova

Buyurtma: V-5592  
Hajmi: 6 bosma taboq  
Bichimi: A3  
Adadi: 31 498 nusxa  
Bosishga topshirish vaqt: 14:00  
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiha "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.  
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.  
Bahosi: Kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri,  
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:  
100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.

